

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA OʻRTA MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Jumanazarova Zevar Otanazarovna

5340100- 5 Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot) oʻqituvchi boʻyicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish
korxonalarida mahsulot tannarxi tarkibidagi toʻgʻri va egri
xarajatlar hisobi va tahlili .

Ilmiy rahbar:

katta oʻqituvchi Matquliyeva Sanobar

Urganch 2014 yil

KIRISH	3
---------------------	---

1-BOB. 1-BOB Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxini shakllantirishda toʻgʻri va egri harajatlarning xususiyatlari

1.1. Mahsulot tannarxini shakllantirishning nazariy asoslari.....	6
1.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning jarayonli va meʼyoriy usullarini qoʻllash.....	11
1.3. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibidagi toʻgʻri va egri xarajatlari, ularning hisobi va mahsulot tannarxiga oʻtkazilish tartibi.....	20

2-BOB Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida oʻlurganch yogʻ-moyö ochiq aksiyadorlik jamiyatida tannarxni shakllanishi va unga taʼsir qiluvchi omillar tahlili

2.1. oʻlurganch yogʻ-moyö ochiq aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holati tahlilining oʻziga xos xususiyatlari.....	29
2.2. oʻlurganch yogʻ-moyö OAJda mahsulot tannarxi va unga taʼsir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish.....	41
2.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xarajatlarini tejash va samaradorligini oshirish yoʻllari.....	56

XULOSA	66
---------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	70
--	----

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'zini tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.¹

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jarayonida mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Shu asnoda, mazkur subyektlar moliyaviy munosabatlarini bozor talablariga javob beradigan darajada takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini samarali kamaytirish orqali eksport salohiyatini yuksaltirish korxonalarini kelgusida muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu sababli, global moliyaviy inqiroz sharoitida moliya-bank tizimini qo'llab-quvvatlash, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishda yuzaga keladigan muammolarni hal etish va ularning moliyaviy barqarorligini yanada oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bank tizimini qo'llab quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir"². Shuningdek, yurtboshimizning ushbu Jahon moliyaviy-iqtisodiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi Xalq so'zi, 2014 y. 18 yanvar (13)

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari - T.: O'zbekiston, 2009. 14- bet.

inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari asarida hamda inqirozga qarshi choralar dasturining aniq bo'limlari -belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan. Jumladan, "qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish. Shu maqsadda 2008 yil xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiyotimizdagi etakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foizga tushirishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflarni ma'qullanganini qayd etish lozim"³.

Shuning uchun, keng institutsional islohotlarni amalga oshirish omillaridan biri, korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishdagi muammolarni hal etish yo'llarini moliyaviy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozimligi mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini bildiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi Mazkur muammoning nazariy asoslari dastlab A.Smit, A.Tyurgo, J.B.Sey, Y.Shumpetr, L.Mizes, F.Xaek kabi klassik iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish muammolarini hal etish yo'llarini g'arb va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari A.I.Agaev, A.V.Busigin, B.A.Rayzberg, V.Radaev, G.Gross, D.G'azizbekov, J.Filips, L.I.Abalkin, M.G.Lapusta, R.Xizrich, S.Piters kabilar o'z asarlarida yoritgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.V.Vahobov, A.Sotvoldiev, M.B.Hamidullin, M.To'daxodjaeva, M.Sh.Sharifxo'jaev, S.S.G'ulomov, X.N.Jamolov, E.Gadoev, Yu.M.Itkin kabilar o'z asarlarida mahsulot tannarxi va uni pasaytirish masalalari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Ushbu tadqiqotlik ishida tadqiqot ob'ekti qilib o'Urganch yog'moy'ö OAJ, predmeti qilib esa korxonalar ko'rsatkichlarining moliyaviy xolati, shakllanishi va rivojlanishi olindi.

³ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari - T.: O'zbekiston, 2009. 33-34- betlar.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxi tarkibidagi toʻgʻri va egri xarajatlar hisobi va tahlilini oʻrganish maqsadiga erishish uchun quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- Mahsulot tannarxini shakllantirishning nazariy asoslarini oʻrganish;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning jarayonli va meʼyoriy usullarini qoʻllash;
- Asosiy ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibidagi toʻgʻri va egri xarajatlarni, ularning hisobi va mahsulot tannarxiga oʻtkazilish tartibi;
- Oʻrganch yogʻ-moyö ochiq aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holati tahlilining oʻziga xos xususiyatlari;
- Oʻrganch yogʻ-moyö OAJda mahsulot tannarxi va unga taʼsir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish;
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xarajatlarini tejash va samaradorligini oshirish yoʻllarini koʻrsatish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ó uslubiy asosi BMIning mavzusini yoritishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xalqaro miqyosda yuqori baholanayotgan va ijobiy natijalarini mamlakatning taraqqiyoti tajribasi tasdiqlanayotgan tanlangan asarlari toʻplamiga kiritilgan kitoblardan, koʻplab maqola va chiqishlarida bozor iqtisodiyotiga oʻtish borasidagi vazifalari haqidagi asarlari, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasining meʼyoriy hujjatlaridan, ommaviy axborot vositalari materiallaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

1-BOB Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxini shakllantirishda to'g'ri va egri harajatlarning xususiyatlari.

1.1. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirishning nazariy asoslari

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy tivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tamonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.⁴

Oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarini uchun keng ko'lamda rag'batlantirish tizimi nazarda tutilgan va imtiyozlar berilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan.⁵

Ushbu dastur asosida o'Urganch yog'o-moyö OAJ da mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan. Ushbu dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- energiya resurslarini iqtisod qilish,

⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari o T.: O'zbekiston, 2009. 30-31- betlar.

⁵ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari o T.: O'zbekiston, 2009. 35-37- betlar.

- texnik jarayonlarni optimallashtirish,
- modernizatsiya qilish va texnik tadbirlar oʻtkazish xisobiga xom-ashyo materiallar sarfini belgilangan meʼyorlardan kamaytirish,
- texnologik jarayonlarni optimallashtirish xisobiga texnologik yoʻqotishlarni kamaytirish,
- ishlab chiqarishga egri xarajatlarni pasaytirish,
- davr xarajatlarini qisqartirish,
- boshqa xarajatlarni tejash xisobiga.⁶

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kimga va qancha toʻlash korxonalar rahbarlarini oʻziga toldiruvchi eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Sotsialistik tuzum rahbarlar oldiga bunday muammolarni qoʻymagan, odatda barcha kishilar vazirliklar tomonidan belgilanadigan va davlat byudjetidan toʻlanadigan, egallagan lavozimiga mos oʻzgarmas, bir xil maosh olar edi. Hozirgi paytda hayotimizga kirib kelayotgan kapitalistik munosabatlar xodimlar mehnatining samaradorligini baholash va ularga haq toʻlash masalasini birinchi oʻringa olib chiqmoqda. Mehnati uchun juda arziyasiz haq oladigan xodim yaxshiroq ish topgan zahotiyoyoq ishdan boʻshab va hattoki raqobatchi tomon xizmatiga oʻtib, oʻzining sobiq ish beruvchilarini ancha tashvishga solib qoʻyishi mumkin.

Oqibatda korxonani faoliyatining samaradorligi maʼlum bir vaqtda kamayadi. Chunki yangi xodim topguncha uning vazifalari sobiq xamkasblar zimmasiga yuklanadi yoki ularni hech kim bajarmaydi.

Xodimlarga haddan tashqari koʻp haq toʻlaganda, korxonalar rivojlanishi uchun sarflanadigan foyda kam qoladi (yoki umuman qolmaydi).

Koʻrinib turibdiki, tushumning maʼlum bir miqdorida uch element bir-biri bilan uzviy bogʻliq. Demak, ish haqi miqdori oshirilganda, yo xarajatlarni kamaytirish zarur, yo foyda oʻz-oʻzidan kamayadi. Xarajatlarni kamaytirishning turli usullari mavjud, biroq ulardan birini asosli ravishda tanlash uchun xisobga

⁶ oʻz-Uganch yoʻqoʻmoyOAJda ishlab chiqariladigan maxsulotlar tannarxini kamaytarish borasida 2013-yilda belgilangan chora-tadbirlar dasturi.

olish maʼlumotlariga tayanish zarur. Bu jixatdan korxonada mavjud maʼlumotlar, odatda buxgalterlik maʼlumotlari bilan chegaralanadi .

Tabiiyki, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun bunday maʼlumotlar etarli emas. Amerikalik D.Xarris 1936 yillardayoq bunday vaziyatdan chiqish yoʻlini topgan edi.

U toʻgʻri xarajatlar xisobini yuritishni anglatuvchi oʻdirekt - kostingö (yoki direkt-kost) (direkt-costing) tushunchasini muomalaga kiritdi. (Direkt - kosting -tarjima qilganda unga boshqarish xisobi maʼnosi berilib , quyidagi funktsiyalar belgilangan: xarajatlarni toʻgʻri va qoʻshimcha xarajatlarga ajratish, umuman korxonaning, tuzilmaviy boʻlinmalarining, xar bir xodimning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek korxonada xodimlarining faoliyatini korxonada uchun zarur yoʻnalishda ragʻbatlantiruvchi mehnatga haq toʻlash tizimini yaratish).

Oʻzgaruvchan xarajatlarni xisobga olishni u oʻveriebl kostingö (virebl - costing) deb nomlagan.

Xar qanday boshqaruv qarori faqat obyektiv maʼlumotlarga asoslangan holda qabul qilinishi mumkin .

Raxbar har doim uning korxonasi qanchalik samarali faoliyat yuritayotganligi, olinayotgan tushum yoki ishlab chiqarish xarajatlarining dinamikasi, ishlab chiqarilayotgan maxsulot (sotilayotgan tovarlar, taklif etilayotgan xizmatlar) miqdoriga mavsumiy omillarning taʼsiri toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlishi lozim . Korxonada xoʻjalik faoliyatini doimiy ravishda taxlil qilib borish, oʻzgaruvchan bozor sharoitlariga tezda qayta moslashish imkonini beradi. Bundan tashqari, boshqaruv xisobi kompaniyaning ichki nazorat tizimini, uning alohida tuzilmaviy boʻlinmalari va ularning xodimlari ustidan nazoratni keskin kuchaytiradi. Yanada samaraliroq rejalashtirish, shuningdek, rejalar ijrosini nazorat qilish imkoniyati paydo boʻladi .

Yaxshi shakllantirilgan tashkiliy tuzilma xodimlar bilan samarali ishlash uchun ham asos hisoblanadi. Korxonada har bir mutaxassisni oʻrni va funktsiyalari aniq belgilangan holdagina xodimlarni tanlash xarajatlari oʻzini oqlaydi.

Shundan soʻng boshqaruv xisobini yuritish tizimi oʻz samarasini bera boshlaydi. Korxonada, uning tuzilmaviy boʻlinmalari va har bir xodimning ish samaradorligini esa faqat uning yordamida xolis baholash mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda muhim kategoriya hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning barcha sohasida asosiy maksad-foyda olish va uni koʻtarishdir. Rivojlangan mamlakatlarda maʼlum miqdorda foyda olmasdan faoliyat yurituvchi korxonalar ham mavjud. Shunday boʻlsa ham foyda bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy rol oʻynaydi. Foyda kategoriyasi iqtisodiy nazariyaning obʼekti sifatida bir necha yuz yillardan beri hamda uning mohiyati va shakllari toʻgʻrisida hozirgacha talqin etib kelinadi.

Iqtisodiy nazariyaga oid koʻpgina adabiyotlarda foyda kategoriyasi daromad, kapital, foiz, ularning stavkalari bilan bogʻliq holda bayon etiladi. Foydaning yalpi sarflar chegirilgan umumiy tushumini aks ettiradi. Chegiriladigan sarflar tarkibiga ish haqi, ijara toʻlovi, material uchun xarajatlar, yoqilgʻi, yigʻma buyumlar, amortizatsiya, ssuda boʻyicha foizlar, soliqlar, zaxiralar va haqozalar kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda foyda ishlab chiqarish omillaridan foydalanishdan kelgan daromad deb koʻrsatiladi. Ishlab chiqarish omillari asosan mehnat, er va kapital hisoblanadi.

Foydaning mazmunini quyidagi xususiyatlarda koʻrish mumkin:

- Foyda tadbirkorlik faoliyati uchun haqdir;
- Foyda boshkarishdagi talant uchun haqdir;
- Foyda tavakkalchilik faoliyati uchun haqdir;
- Foyda monopol foydani anglatadi.

Korxonada uchun avvalo koʻproq foyda olish muhim hisoblanadi. Buning uchun foydaning oʻlchanish darajasini bilish lozim. Agar korxonaning yillik foydasi 5,5 mln soʻm boʻlib, kapitali 55,5 mln soʻm boʻlsa, bu yaxshi natija. Korxonaning yillik foyda darajasi korxonaning yillik oboroti yoki uning kapitali miqdori bilan taqqoslanadi.

Korxonada foydasi davlat byudjeti daromadlarining yuzaga kelishida asosiy vosita hisoblanadi, chunki, foyda oladigan har bir korxonada albatta soliqqa tortiladi.

Foyda mamlakat moliya tizimida korxonalar moliyaviy faoliyatining natijasi sifatida muhim rolni oʻynaydi. Moliya tizimi davlat byudjeti, korxonalar moliyasi, sugʻurta tashkilotlari va kredit muassasalarining faoliyatlari asosida shakllanadi. Shunday ekan bozor sharoitida korxonalar foydasi juda katta ahamiyatga ega. Foydaning yuzaga kelishi va uning taksimlanishi natijasida iqtisodiyot va korxonaning oʻzi uchun zarur boʻlgan pul mablagʻlari yuzaga keladi. Jamiyatda ishlab chiqarish soxasi va noishlab chiqarish soxasi ham pul mablagʻlari bilan taʼminlanadi. Moliya tizimining shakllanishini korxonalarda foydasiz tasavvur qilib boʻlmaydi, xozirgi sharoitda har bir korxonalar foyda olishi lozim, agar foyda olishga erishmasa u faoliyatini davom ettira olmaydi. Bozor iqtisodiyoti ham shuni talab qiladi.

Mexnatning moddiy xarajatlari quyidagilardan iborat:

Maxsulotga qoʻshiladigan xom ashyo va materiallar -sotib olingan materiallar

A) (ishlab chiqarishni meʼyorida oʻtishini taʼminlash, extiyot qismlar, maxsulotlarni oʻrash, joylash uchun materiallar va hokazo).

- Ishlab chiqarish xususiyatiga ega xizmatlar va ishlar.
- Tabiiy xom ashyo (suv, yogʻoch va hokazo).
- Energiya va yoqilgʻining hamma turlari.
- Materiallarning tabiiy kamayishi.

B) Ishlab chiqarish xarakteridagi mexnatga toʻlovlar:

- Bajarilgan ishlar uchun toʻlovlar.
- Qoʻshimcha toʻlovlar.
- Ishlanmagan vaqtlar uchun toʻlovlar

V) Ijtimoiy sugʻurtaga ajratmalar:

- Ish haqi fondiga nisbatan ajratmalar.
- Nodavlat nafaqa fondiga, ixtiyoriy tibbiy sugʻurtaga va boshqa ixtiyoriy toʻlovlar.

G) Asosiy fondlar va nomaterial aktivlar amortizatsiyasi:

- Asosiy fondlarning eskirishiga qarab bosh birlamchi bahodan ajratma.

D) Ishlab chiqarish xarakteridan boshqa xarajatlar:

- Ishlab chiqarish jarayoniga koʻrsatilgan xizmatlar.
- Ishlab chiqarish xom ashyo va materiallar bilan taʼminlash.
- Asosiy fondlarni ishchi xolda saqlash xarajatlari.
- Oʻt oʻchirishni taʼminlash va qorovullar.
- Ishlab chiqarish asosiy fondlarini ijara haqi va x.k.

Moliyaviy faoliyat xarajatlari

- Banklarning uzoq va qisqa muddatli kreditlari uchun toʻlovlar.
- Uzoq muddatli ijara uchun toʻlovlar .
- Valyuta kursining oʻzgarishi sababli foyda va zararlar.
- Korxonaning oʻz qimmatbaho qogʻozlarini chiqarish va tarqatish xarajatlari.

1.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning jarayonli va meʼyoriy usullarini qoʻllash

Tannarxni jarayonlar boʻyicha kalkulyatsiya qilish tizimi seriyali yoki ommaviy tarzda bir xil yoki taxminan bir xil qoʻllaniladi. Xarajatlarni jarayonlar boʻyicha kalkulyatsiya qilishni har bir ishlab chiqarish boʻlinmasi tomonidan ishlab chiqarish jarayonining alohida qismini bajarish va ishlov berishga qarab mahsulotni bitta muomaladan boshqasiga oʻtishni koʻzda tutgan texnologiyaga ega subʼektlar ham qoʻllaydilar. Oxirgi boʻlinma ishlab chiqarishni tugatadi va mahsulotni tayyor mahsulot omboriga topshiradi. Xarajatlar mahsulotlarga ishlab chiqarish boʻlinmalari boʻyicha maʼlum vaqt davri uchun nisbatsiz umumlashtiriladi.

Mahsulot birligining tannarxi ishlab chiqarish tannarxini maʼlum davrda shu davrda ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdoriga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi.

Bunday ishlab chiqarishlarga kimyo, neftni qayta ishlovchi, toʻqimachilik, tsement va boshqa ishlab chiqarishi seriyali va ommaviy turdagi tarmoqlar kiradi. Ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish va ishlab chiqarish obʼektlarining hisobi uchun qoʻllaniladigan birliklar toʻgʻrisidagi aniq tavsif mashinasozlik misolida berilgan.

Seriyali ishlab chiqarish ommaviyga nisbatan tezkor-ishlab chiqarishni rejalashtirish aniqlashtirilgan uslublaridan va tayyor mahsulotni oʻlchashga nisbatan detallashtirilgan reja-hisob birliklaridan foydalanadi. Oqimli ishlab chiqarishda boʻlgan mashinasozlik korxonasida seriyali turdagi sex va uchastkalar koʻp hissani tashkil etadi. Shunga nisbatan ishlab chiqarishni toʻliq akslovchi va uning xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan tezkor-kalendar rejalashtirish va tezkor hisob tizimlarini koʻrib chiqamiz.

Seriyali ishlab chiqarish maxsus uskunalar bilan taʼminlangan ixtisoslashgan yoki universal uskunada ishlangan detallarning koʻp miqdoridan tarkib topgan mahsulotlarning keng nomenklaturasi bilan tavsiflanadi.

Tayyorlovchi ishlab chiqarish sexlari, ularga quyuvchi, temirchilik, presslovchi tsexlar kiradi, texnologik turi va ishlab chiqarish tsiklining tugaganligi boʻyicha ixtisoslashadi. Shunday qilib, quyuvchi tsexlar va ularning boʻlinmalari qoʻyiladigan narsalari boʻyicha ixtisoslashadi - kulrang choʻyan, quyma choʻyan, podat quyilma, rangli quyilma; quymalar guruhleri boʻyicha-yirik, oʻrta va kichik quyilma boʻlinmalari; texnologiya jarayonlarining xususiyatlari boʻyicha - bosim yordamida quyish; kuydiradigan yoki eritiladigan modullar boʻyicha - quyish va boshqalar.

Temirchilik sexlar texnologik turlari boʻyicha ixtisoslashadi - mustaqil quyish, issiq shtampovka, oʻtqazish;

detallar guruhleri boʻyicha ó ogʻir, oʻrtacha va mayda nakovka;

uskuna guruhleri boʻyicha ó kovka mashinalari boʻlinmalari, bolgʻa yoki press bilan kovka, bolgʻalarda shtampovka qilish, prokatka va boshqalar.

Presslovchi sexlarda ishlab chiqarishni tashkil etishning asosi boʻlib tugallangan ishlab chiqarish tsikliga ega predmet-texnologiya tamoyili hisoblanadi; boʻlinmalarda presslanadigan metallning qalinligiga va uskuna turlariga ó qalin, oʻrta va yupqa varoqli shtampovka qiluvchi uskunalarga qarab ixtisoslashtirilgan.

Mexanik ishlov berish tsexlarida ishlab chiqarish predmetning yopiq tsikli boʻyicha ó uzellar, agregatlar, detallar; predmet-texnologiya turi boʻyicha-tokar boʻlinmasi, frezer va boshqalar tashkil etiladi; ayrim hollarda boʻlinmalarga ishlov berish turi boʻyicha ixtisoslashtirilganligi uchraydi ó choʻyan detallar boʻlinmasi,

odat detallar boʻlinmasi va boshqalar. Asosan detallarga ishlov berish hamma turdagi ishlov berishni termik ishlov berish, mustaxkamlash va boshqa komplektlanishini taʼminlovchi ish joylariga ega oqimli liniyalarda mujassamlangan qoʻshimcha muomalalarni ham kiritadi.

Meʼyorlashtirilgan detallarni ishlab chiqarish, odatda, mustaqil tsexlarga yoki alohida boʻlinmalarga ajratiladi. Koʻp hollarda bunday detallarni tayyorlash metall bilan qoplash bilan kuzatiladi.

Mexanik yigʻish va yigʻish sexlarida oqimli texnologiya boʻyicha konveyerlarda tashkil etilishi mumkin yoki yigʻish stendlarda amalga oshiriladigan muhim yigʻish boʻlinmalariga ega boʻlishi mumkin. Bu holda moddiy oqimlar harakatning asosiy turlari 6 komplektli, guruhli va portsiyali. Sexlar ichida boʻlinmadan boʻlinmaga detallar bemalol yoki liniyalar yordamida, mexanizatsiyalangan va avtomatlashtirilgan moslamalar yordamida, konveyerli yoki relsiz transport yordamida yurishi mumkin. Tayyorlash, pakovka, qoʻyilmalar, shtampovkalarga ishlov berish yoki yigʻishdan oldin saqlash uchun tsexlar oldidagi omborlar yoki detallarni komplektlovchi boʻlinmalarga ega markaziy omborlar vazifalarini bajaruvchi omborlar tashkil etiladi. Muomalalar oraligʻidagi taʼmirlar buning uchun maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi: osilgan tara, osilgan omborlar, mexanizatsiyalashgan hududlar, muomalalar orlikidagi omborlar va boshqalar.

Moddiy oqim harakati nazorat-hisob nuqtalarida nazorat qilinadi: materialni olish, materiallarni qayta ishlashga joʻnatish, tsexlar ichidagi harakati, tsexlararo harakati, tayyor mahsulotni chiqarish. Nazorat-hisob nuqtalari mahsulotning yaroqliligini va yaroqsizligini aniqlash maqsadida mahsulotni qabul qilish uchun kerak boʻladi. Oʻzining texnologiyasiga koʻra, har bir ishlab chiqarish chiqarishning turli joylariga ega mahsulot chiqarish va shunga muvofiq nazorat-hisob nuqtalari. Quyuvchi tsexlarda ishlab chiqarish nuqtasi boʻlib detallarga shakl berish hisoblanadi, temirchilik tsexlarda 6 pakovkalarni shtampovkalash, presslovchi tsexlarda 6 buyumlarni shtampovkalashda birinchi yoki yurituvchi muomala, mexanik yigʻish va yigʻish tsexlarida 6 buyumlarni yigʻishga joʻnatish. Hamma ishlab chiqarishlarda tayyor buyumlarning hisoblash nuqtasi boʻlib, tayyor


mahsulotni qabul qilish bo'yicha texnik nazorat bo'limlarining punktlari hisoblanadi. Tayyor mahsulotlarni topshirish nuqtasi bo'lib, tayyor mahsulotni iste'molchi tsexlarga yoki ishlab chiqarish bo'limining, sotuv bo'limining omborlariga jo'natish joylari xizmat qiladi. Yaroqsiz detallarning hisoblash nuqtasi bo'lib, yaroqsizlik aniqlangan texnologik jarayonlarning muomalalari hisoblanadi.

Detal, uning buyumga kirish me'yori hozirgi davrning o'zida me'yoriy kalkulyatsiya qilishning ob'ekti hisoblanadi, chunki uzal, agregat, buyumga me'yoriy kalkulyatsiya tuzilishidan oldin to'g'ri xarajatlarni detalga bo'lgan natural va qiymatli mazmunining me'yorlari aniqlanadi.

Detal reja-hisob birligi sifatida quyidagi elementlarni qamrab oluvchi me'yoriy rejalashtirish va ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlar hisobi tizimining komplektlashganligi talabiga javob beradi:

- mahsulot chiqarishning ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uni tayyorlash muddatining etkazib berish shartnomasi muddati bilan to'g'ri kelishini, tseklar, bo'limlar va brigadalar bo'yicha mahsulot tarkibini me'yorlashtirish va boshqalar;
- iste'mol, asosiy jamg'armalarning sarflari va zahiralari, moddiy, mehnat va moliya resurslarining yagona me'yori asosida texnik, texnologiya va iqtisodiy asoslash;
- ishlab chiqarish bo'limlari darajasida ishlab chiqarish faoliyati natijalarini rejalashtirish, hisobga olish va aniqlash.

Ommaviy ishlab chiqarishning chegaralangan nomenklaturasi bilan va ma'dum vaqt mobaynida uzluksiz tayyorlanadigan mahsulotning turlari ko'p miqdorda ishlab chiqarish bilan ajralib turadi (1.2.1-rasm).




1.2.1-rasm. Mahsulotlarning tannarxini jarayonlar boʻyicha kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni yigʻish

Xarajatlarning jarayonli kalkulyatsiyasi ishlatiladigan ishlab chiqarishda mahsulot to tayyor boʻlmaguncha bir jarayondan boshqasiga oʻtib yuradi. Bunday ishlab chiqarish bosqichlarini yoki jarayonlarini oʻtash kimyo, tsement, neftni qayta ishlash, tekstil sanoatlariga hosdir. Xarajatlar toʻplanishi jarayoni ishlab chiqarish jarayoniga parallel boʻladi. Har jarayon uchun nazorat schetlari oʻrnatilib, toʻgʻri va ustama xarajatlari aniqlanadi. Toʻgʻri xarajatlar buyurtmali kalkulyatsiya usulidek aniqlanadi, lekin hisob-kitobi engilroq boʻladi, chunki mahsulotning har birligi uchun xarajatlarni detallashtirish kerak emas. Bir jarayondan boshqasiga oʻtganda xarajatlar oʻsadi. A jarayonning xarajatlari V jarayonga oʻtib, uning xarajatlariga qoʻshiladi, keyin S jarayonga oʻtib Sning xarajatlari qoʻshiladi va hokazo. Shunday qilib ohirgi bosqichning xarajatlari ham qoʻshilgandan keyin umumiy tannarx kelib chiqadi

(1.2.2- rasm).

A jarayon		
materiallar	1000	
mehnat xarajatlari	1000	jarayon V ga berildi 3000 ----- >
ustama xarajatlari	1000	
	3000	
V jarayon		
-----> jarayon A dan	3000	
mehnat xarajatlari	2000	
material	1000	jarayon S ga berildi 6500 ----->
ustama xarajatlari	500	
	6500	
S jarayon		
-----> jarayon V dan	6500	
mehnat xarajatlari	3000	
material	2000	
ustama xarajatlari	1000	Tayyormahsulot omboriga berildi 12500 ----->
	12500	Tayyor mahsulot
		-----> S jarayondan 12500

1.2.2-rasm. Jarayonli kalkulyatsiya tizimida tannarx oʻzgarishi



1.2.3-rasm. Jarayonli kalkulyatsiya tizimida tannarx shakllanishi hisobi

Ustama sarflar va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash bilan bogʻliq muammo paydo boʻlganda toʻgʻri xarajatlarni taqsim etish oddiy tartibga ega.

Jarayonlararo kalkulyatsiya va xarajatlarni jamgʻarish tartibini tahlil qilib hisob jarayonini besh bosqichga boʻlish mumkin:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini natural yoki reja hisob birliklarida hisobga olish.
2. Mahsulotni chiqarishni natural yoki reja-hisob birliklarida hisobga olish.
3. Hisoblangan xarajatlarni «Asosiy ishlab chiqarish» schetining debetida jamlash.
4. Xarajatlarni tayyor mahsulotlar va davr oxiriga boʻlgan tugallanmagan ishlab chiqarish oʻrtasida taqsimlash.

5. Mahsulot birligining tannarxini hisoblab chiqish.

Xo'jalikni yuritishning samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har qanday bosqichida asosiy va muhim masala hisoblanadi. Bu boshqaruvning me'yoriy tiziminn milliy xo'jalik tarmoqlari darajasida va bir sub'ekt miqyosida qo'llashni muhim qilib qo'yadi.

Xarajatlarni boshqarishning me'yoriy tizimi o'zi bilan rejalashtirish, me'yorlash, materiallarni ishlab chiqarishga berish, ichki hisobot tuzish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, xarajatlarning me'yor asosida iqtisodiy tahlil va nazoratni ro'yobga chiqarish bo'yicha muolajalarning jamlamasini aks ettiradi.

Uning asosiy maqsadi bo'lib ishlab chiqarish omillarini to'liq ishlatish va xo'jalikni tejamli yuritish hisoblanadi. Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat:

- sub'ektning oldiga qo'yilgan masalalarni echishni ta'minlovchi me'yorlar asosida xarajatlarni rejalashtirish;
- me'yor va me'yorlashtirishlar bilan asoslangan ishlab chiqarish maqsadlari bo'yicha turli resurslarni ishlatish uchun ruxsatnomalar berish yo'li bilan xarajatlarni hujjatlashtirish;
- xarajatlarni buxgalteriya hisobining schetlarida ularning me'yorlari va undan chetga chiqishlarni aks ettirish.

Kalkulyatsiya qilish xarajatlarning me'yoriga asoslanadi, me'yordan chiqib ketishlar ularning vujudga kelishi bo'yicha buxgalteriya hisobining schetlarida ishlab chiqarish natijasining ko'payishi yoki kamayishi sifatida ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlarni va mahsulotning tannarxi kalkulyatsiyasining me'yoriy usuli boshqalardan ko'proq xarajatlarni boshqarish me'yoriy tizimining talablariga javob beradi.

Har bir sub'ektda xarajatlarni hisobga olishning usulini tanlash ushbu sub'ektning tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Xarajatlarni hisobga olishda me'yoriy hisobni tashkil qilishning uchta turini ajratish mumkin:

A. Me'yoriy xarajatlar bo'yicha hisobga olish. Ushbu usulda sarflangan haqiqiy xarajatlar quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$\text{Me\o yoriy xarajatlar} \pm \text{Me\o yordagi xarajatlardan chetga chiqish} = \text{Haqiqiy xarajatlar}$$

Ushbu tartibda buxgalteriya hisobida moddiy qiymatliklarning (asosiy materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar) harakati belgilangan me\o yorlar bo\o yicha baholanishi shartidan kelib chiqiladi. Ushbu faoliyat jarayonida aniqlangan chetga chiqishlar ro\o yobga chiqish holatida yig\o lib boriladi va hisobot davrining oxirida me\o yordagi xarajatlarning hajmiga ko\o shiladi.

V. Haqiqiy va me\o yordagi xarajatlarni bir yo\o da hisobga olish. Ushbu usul ishlab chiqarishdagi xarajatlar to\o g\o risidagi ma\o dumotlarni ikki bahoda:

- haqiqatda yig\o lgan xarajatlar bo\o yicha;
- haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko\o rsatilgan xizmatlarning hajmiga sarflangan me\o yoriy xarajatlarning miqdorida yoritishni nazarda tutadi.

Haqiqiy sarflar - Me\o yordagi sarflar \pm Chetga chiqishlar.

S. Aralash usulda hisobga olish. Ushbu usul ikkita yo\o l bilan hisobni yuritishni nazarda tutadi.

Birinchi yo\o l. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning amaliyotida keng tarqalgan va mamlakatimizda ham qo\o llanishi tavsiya qilingan. Lekin hisobot davri davomida jami chetga chiqishni aniq darajada hisobga olish imkoniyati mavjud emas. Hisobot oyining oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishning me\o yoriy tannarxi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning me\o yordagi hajmi bilan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning me\o yoriy tannarxning farqi ko\o rinishida aniqlanadi. Natijada oy davomida yoki boshqa hisobot davrida hisobga olinmagan chetga chiqish summasi hisobot davrining oxiridagi ishlab chiqarishning qiymatiga qo\o shiladi.

Ikkinchi yo\o l. Asosiy xarajatlar bo\o yicha tasdiqlangan me\o yorlarga rioya qilish ustidan kundalik nazoratni o\o rnatishni nazarda tutadi. Hisobot davri davomida me\o yordan chetga chiqish bo\o yicha olingan ma\o dumotlar buxgalteriya hisobining tegishli registrlarida umumlashtirilmaydi va schetlarda qayd qilinmaydi.

Tasdiqlangan me\o yorlardan chetga chiqish summasi baholangan tayyor

mahsulotning hajmiga sarflangan haqiqiy xarajatlar bilan ushbu mahsulot uchun sarflanishi lozim boʻlgan meʼyoriy xarajatlarni taqqoslash yoʻli bilan bir xil mahsulotlarning har bir guruxi boʻyicha aniqlanadi. Ushbu holatda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati ishlab chiqarishda yarim fabrikatlar harakatining balansi boʻyicha natura koʻrsatkichlardan kelib chiqqan holda meʼyoriy tannarxi boʻyicha baholanadi, yoki ishlab chiqarish boʻlinmalaridagi tugallanmagan ishlab chiqarishni xatlab hisobga olish asosida baholanadi.

1.3. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibidagi toʻgʻri va egri xarajatlar, ularning hisobi va maxsulot tannarxiga oʻtkazilish tartibi.

Maxsulot tannarxi - maxsulot, ishlab chiqarish, ish va xizmatlar xarajatlar xisobini yuritishning puldagi ifodasidir.

Buxgalteriya xisobi milliy andozalarining *o*Tovar moddiy zaxiralari*o*deb nomlangan 4-sonli BXMSda tannarx tarifi quyidagicha keltirilgan:

Tashkilotning *o*zi tomonidan ishlab chiqariladigan (tayyorlanadigan) tovar-moddiy zahiralarning tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi. Tovar-moddiy zahiralarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli boʻladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish xususiyatiga ega boʻlgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.⁷

Xarajatlar xisobini toʻgʻri va oqilona tashkil etish, va eng avvalo, moliya-xoʻjalik faoliyatini xisobini yuritishni tashkil etish meʼyoriy usuli deb atalgan usulni joriy etish korxonalar uchun eng muhim muammolardan biridir.

Buning zarurligi qator xujjatlarda koʻrsatib oʻtilgan, xususan, Oʻzbekiston Respublikasida Buxgalteriya xisobining milliy andozalariga taalluqli *o*Tovar-moddiy zaxiralari*o* deb atalgan 4-bobda shunday deyilgan: *o*

⁷ Oʻzbekiston respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 4-sonli BHMS tovar-moddiy zahiralari(yangi tahrirda) 4 bob 27-bandi

Tovar-moddiy zahiralari (mahsulot (ishlar, xizmatlar)) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tovar-moddiy zahiralari nomenklaturasiga bogʻliqdir.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari boʻlib: oddiy, meʼyoriy, buyurtma, bosqichli usullar hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qoʻllaniladi⁸.

Biroq, hozirda korxonalarda amalda boʻlgan tannarxi boshqarish amaliyoti koʻp jihatdan zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Chunki, u muntazam tusga ega emas va xarajatlar kamayishini taʼminlaydi. Oʻtkazilgan tadqiqotlar tannarxi boshqarishni tubdan yaxshilash uchun uni xarajatlarini boshqarishning asosiy elementlaridan biri yalpi meʼyoriy tizimi sifatida tashkil etish zarurligini koʻrsatmoqda. Shunday qilib zarurki, unda mazkur tizim haqiqatdan ham umumiy va yaxlid boʻladi, u barcha boshqaruv darajalarini qamrab olishi va meʼyoriy usulga asoslanmogaʻ darkor. Meʼyoriy usulga asoslanish shundan iboratki, bunda boshqarilayotgan obʼjektga taʼsir koʻrsatish toʻgʻrisidagi qaror meʼyoriy koʻrsatkichlar chekinishlar roʻy bergan haqidagi axborotlar asosida qabul qilinadi. Meʼyoriy usulga xos boʻlgan xarajatlar meʼyorlaridan cheklanishlarni muntazam ravishda aniqlab borish ortiqcha xarajatlar (salbiy cheklanishlar)ni bartaraf etish yuzasidan tashkiliy, texnologik maʼmuriy va iqtisodiy choralar koʻrish imkonini beradi hamda natijada tannarxning kamayishiga yordam beradi.

Tannarxning meʼyoriy xisobi u yaratayotgan axborotga avtomatik tarzda ishlov berish umumiy koʻp maqsadni koʻzlagan xolda tartibga solishni hamda xarajatlarni hozirda va istiqbolda boshqarishda amaldagi meʼyor va meʼyoriylardan foydalanishni taʼminlaydi.

⁸ Oʻzbekiston respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 4-sonli BHMS tovar-moddiy zahiralari (yangi tahrirda) 5-bob 30-bandi

Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va uning texnologiyasidagi o'ziga xosliklarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, me'yoriy usul o'z xususiyatlariga, imkoniyatlariga va qamrov darajasiga ko'ra «Ishlab chiqarish xarajatlarini xisobga olish usuli» dan ancha chuqur va keng qamrovlidir. Aynan shuning uchun ham u qishloq xo'jaligi tuzilmalarining ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyati xisobini yuritishni tashkil etish usuli sifatida qo'llanishi mumkin. Me'yoriy xisob joriy etilishini taxlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, uning tarqalish xududi hali etarli emas. U qisman ziroatchilikda, chorvachilikda va yordamchi ishlab chiqarishda qo'llanadigan. Garchi tannarx va boshqa ko'rsatkichlarni shakllantirish ko'p jihatidan shunga bog'liq bo'lsa ham undan ta'minot-tayyorlov, moliya-sotuv va tashkiliy soxalarda foydalanilmaydi. Masalan, ta'minot - tayyorlov soxasini me'yoriy xisobga olish, yetkazib berish xajmi, olingan xom ashyo va materiallar sifati, yo'l -tayyorlov xarajatlari, tushirish va yuklash xarajatlari va haqozolarni axborot bilan qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shunday vaziyatda me'yoriy xisob to'liq bo'lmaydi, aniqlangan chekinish va o'zgarishlar esa xar doim ham ta'sir qiluvchi omillar bilan mos kelaveradi.

Ilg'or me'yoriy bazalar mavjud bo'lishi me'yoriy metodni joriy etishning eng asosiy shartidir. Buning uchun qishloq xo'jaligi tuzilmalaridan yagona me'yoriy xo'jalik tashkil etiladi. Chunki me'yoriy kalkulyatsiyalarni to'g'ri tashkil etish yana shunga bog'liqdir. Korxonada maxsulot tannarxi faqat bir marta va yilning oxirida aniqlanishi tufayli joriy yilning o'zida ayrim ishlar va xizmatlar tannarxini agro - texnik va texnologik kartalar asosida xisoblab chiqish lozim.

Me'yoriy xo'jaligida norma va me'yorlar me'yorlashtiriladi, me'yorlar xarakati, nazorat va uning sifatini taxlil qilish xisobi yuritiladi. Buning uchun me'yoriy xo'jalik aholi to'g'risida ichki xisobot shakllarini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Unda amaldagi norma va me'yorlilar, eskirgan normalarni ularni yangilash muddatini, qamrov darajasida (me'yorlashtirish darajasi) hamda davr oxiriga kelib normalar va me'yorlilar bilan amalga

oshirilgan barcha jaroyonlarni ko'rsatgan xolda qayta ko'rib chiqishga oid tadbirlar aks etiriladi.

Yaxshi tashkil etilgan mehnatdan va moddiy boyliklardan oqilona foydalanish (mehnat, urug'lar, ozuqalar, o'g'otlar, yonilg'i-moylash materiali, o'simliklarning ximoyalashning kimyoviy usullari, veterinariya dori-darmonlar, prepartlar va hakozolarga haq to'lash uchun pul mablag'larini sarflash) ustidan tezkor iqtisodiy nazorat tizimi me'yoriy xisob sharoitida birinchi darajali ahamiyatga egadir. Endi me'yoriy usulning tashkil etuvchi elementlariga batafsil to'xtalamiz:

➤ ishlab chiqarish bo'yicha texnologik qartalarni va tashkiliy o' texnikaviy qartalarni ishlab chiqarish (qishloq xo'jalik ishlarining ayrim qizg'in davrlari) xamda ekin maydoni va birligiga sarflangan xarajatlarni aniqlash; ayrim ish turlari, ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari (yoki ularning bir qismi), me'yoriy vazifalari asosida uzoq davom etmaydigan davr uchun tarkibiy xo'jalik bo'limlariga qishloq xo'jaligi davrlari uchun me'yoriy xisob-kitoblarni (tezkor va qisqa muddatli vazifalar) tuzish;

➤ amalda bajarilgan va mexanizatsiyalashtirilgan odatda, qo'lda bajariladigan ishlar, mehnat sarfi va mehnatga haq to'lash fondi xarajatlari xajmiy xisobga olish: xisobga olish va me'yoriy xisob-kitoblar ma'lumotlari asosida amalda bajarilgan, lekin me'yoriylardan ko'zda tutilmagan, shuningdek, bajarilmagan, lekin tegishli tartibda qayd etilgan ishlar xajmini aniqlash: mehnat sarfi, mehnatga haq to'lash fondida xisoblab yozilgan mablag'lar, yonilg'i-moylash materiallari sarfi, maxsulotlar, ishlar va xizmatlar tannarxining me'yoriy xisob-kitoblari asosida amalda bajarilgan ish uchun yordamchi va xizmat xajmini aniqlash:

➤ buxgalteriya xisobi registrlarida xar bir qishloq xo'jaligi ekini (bir turdagi ekinlar) bo'yicha joriy (amaldagi) xarajatlardan chekinishni xisob-kitoblar moddalari asosida xamda ularning vujudga kelish joylari, sabablarini, shuningdek, xatti-xarakatlari ushbu chekinishlarga olib kelgan aniq shaxslar (ortiqcha sarf xarajatlarda aybdor bo'lganlar yoki tejamkorlik tashabuskorlari)ni aniqlagan xolda qayd etish: xarajatlarning norma asosida o'zgarish xajmini aniqlash va ularni

buxgalteriya xisobi registrining «Meʼyoriy xisob-kitoblar asosida ustunida aks ettirish:

➤ yil oxirida (urugʻlar, yordamchi va xizmat koʻrsatuvchi ishlab chiqarishlarning haqiqiy tannarxi xisob-kitob qilganidan soʻng) meʼyoriy va amaldagi tannarx oʻrtasidagi farqlarni aniqlash xamda ularni buxgalteriya xisobi registrida aks ettirish.

Maxsulot ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarni maxsulot turlari boʻyicha (xisobga olish obʼektlari boʻyicha) meʼyoriy usulda xisobga olish ikki yoʻnalishda, yangi xarajatlarni joriy (amaldagi) meʼyorlar doirasida xisobga olish va meʼyordan chekinishlarini uning aniq sabablari, vujudga kelish joyi va maʼsul shaxslarni koʻrsatgan xolda xisobga olish yoʻnalishlarida amalga oshirilmogʻi lozim.

Bunday cheklashlar xisob xujjatlarining yoki chekinishlarni qayd etish jarayonlarining tegishli tartibida boʻlinishlariga olib keladi. Xususan, meʼyoriy xisob-kitoblarda koʻzda tutilgan mehnat sarfi va pul-moddiy xarajatlarini amalga oshirishda, odatdagi xolatda zarur boʻlgan birlamchi xujjatlar tuziladi, ularda xarajatlarning haqiqiy miqdorlari (meʼyorlar doirasida) aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish uchun moddiy boyliklar va ish haqi toʻlash uchun pul mablagʻlarining meʼyordan yuqori darajada sarflanishi rangli qogʻozdan yoki uzunasiga rangli chiziq tortilgan qogʻozdan tayyorlangan maxsus signal (dastlabki) xujjatlari bilan rasmiylashtirilishi zarur. Ularda yoʻl qoʻyilgan chekinishlarning joyi, sabablari va uning muayyan aybdorlari koʻrsatiladi. Signal xujjatlariga, albatta, korxonalar raxbari yoki uning oʻrinbosari imzo chekadi. Shuningdek, bunda qayd etishning boshqa usullari ham qoʻllanishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarining jamlama xisobi meʼyoriy usulda 20, 23-sonli bosh xisobraqamlarga nisbatan oʻrnatilgan moddalar nomenklaturasi asosida va boshqa usulda normadan chekinishlar va oʻzgarishlarni norma doirasida xarajatlarga taqsimlash asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun vazifa - ushbu xarajatlarni tartibga solingan aks ettirishini dastlabki xisob darajasida yoki xatto jamlama - yigʻma (guruhlangan) xisob boʻlgan ishlab chiqarish xisobi darajasida qoldirmasdan uni taxliliy xisob registrlari darajasiga yetkazishdan iboratdir.

Shunday qilib, meʼyoriy usul xisob va nazoratining usullar tizimidir, shuningdek u qishloq xoʻjaligida xarajatlarni boshqarishning muhim vositasidir. Uni tezroq amalga joriy etish uchun quyidagi tartib boʻyicha batafsil ishlab chiqilishi zarur:

- maxsulot ishlab chiqarishda xarajatlar xisobini yuritish uchun meʼyoriy usulni qoʻllashning umumiy tavsifi va mazkur usulni korxonalarda qoʻllashning oʻziga xosliklari;

- qishloq xoʻjaligi korxonalari sharoitida meʼyoriy baza va meʼyoriy tannarxning xisob-kitob qilish (meʼyoriy bazaning roʻdi va ahamiyati, meʼyoriy baza byurosini tashkil etish va uning faoliyatini yoʻlga qoʻyish);

- birlamchi xujjatlar tavsifi va uni meʼyoriy usul sharoitida qoʻllash tartibi (birlamchi jamlama xujjatlarni qoʻllashning oʻziga xosliklari, norma oʻzgarishi va undan chekinishlar haqidagi axborotlarni qayd etish tartibi);

- meʼyoriy usulni ishlarni bajarish va xizmat koʻrsatish sifati va muddati ustidan tezroq nazorat oʻrnatish, xujjatlar bilan rasmiylashtirish texnikasi va mehnat, unga haq toʻlash, urugʻlarni sarflash, ozuqa, yonilgʻi moylash materiallari va boshqa moddiy boyliklar sarfi, umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini meʼyoriy usulda xisobga olish, bajarilgan ishlar, koʻrsatilgan xizmatlar, ishlab chiqarilgan maxsulotning jamlama xisobini tashkil etish);

- korxonalarining sanoat, yordamchi va xizmat koʻrsatish tarmoqlarida meʼyoriy usulni qoʻllash tavsifi: maxsulotlarini qayta ishlash, shuningdek, xoʻjalik ehtiyoji uchun boshqa materiallarni tayyorlash va uni boshqa tomonga sotish xarajatlarining meʼyoriy xisobini tashkil etish. Sarf xarajatlar moddalari boʻyicha meʼyoriy xisobot yuritish va tezkor nazorat oʻrnatish texnologiyasi, shuningdek, xarajatlarning jamlama (taxliliy va sintetik) xisobi texnikasi mohiyatini aniqlash.

Endi yordamchi va xizmat koʻrsatuvchi tarmoqlar sarfini meʼyoriy usulida xisobga olishga kelsak, unda bu boʻlimning ushbu qismida yuk tashish ishlarida yuk mashinalaridan foydalanish, taʼmirlash - mexanika ustaxonasi hamda boshqa yordamchi va xizmat koʻrsatuvchi tarmoqlar ish ustidan (xar biri boʻyicha alohida)

tezkor nazorat oʻrnatish shakli, xisob yuritishni tashkil etish qoidalari va uning tartibini bayon qilish lozim. Ayni paytida texnologik jarayonlar va xoʻjalik operatsiyalarining oʻziga xosliklari ularning turlariga qarab alohida xisobga olinmoga lozim:

- Meʼyoriy usul sharoitida ishlab chiqarishini samarali boshkarish uchun zarur bulgan tezkor iqtisodiy nazoratini amalga oshirishning asosiy tavsiflari :

Xarajatlarni meʼyoriy usulda xisobga olishga doir maʼlumotlardan korxon va uning tarkibiy boʻlinmalarining xoʻjalik xisobidagi faoliyati yakunlarini chiqarish maksadida foydalanish: sarf xarajat normalarining bajarilish ustidan tezkor nazorat oʻrnatish va taxlil qilish: xarajatlarni taxlil qilish, normadan chekinish sabablari va unga yoʻl qoʻyilganligi uchun javobgar boʻlgan shaxslarni aniqlash, ishga xoʻjalik xisob-kitoblarini natijalarini aniqlash va ishlab chiqarish jarayonida ularni takomillashtirib borish uchun xoʻjalikda tasdiqlangan meʼyorlardan foydalanish: pul moddiy boyliklarining sarflanishi, ish haqi yozish va xokazolarga doir birlamchi xujjatlarni bevosita rasmiylashtirish jarayonida tegishli qarorlar qabul qilish va tezkor nazoratini tashkil etish:

Taxliliy va sentetik xisobda ishlab chiqarish xarajatlarining xisob-kitob moddalari, xisob obʼektlari, norma va meʼyoriylardan chekinish joyini bunga aybdor boʻlgan shaxslarni koʻrsatgan xolda guruhlashuvni taʼminlashini koʻzda tutgan xolda xar bir ish uchastkasida kiruvchi va ishlanuvchi axborotlar toʻplami shakllantirilishi lozim. Shunday qilib, meʼyoriy xisob faqat xarajatlar xisobi va maxsulot tannarxi xisob-kitobi bilan cheklanib qolmaydi . U meʼyoriylardan chekinishni xisobga olishni mehnatni moddiy taʼminlash, undan samarali foydalanish, texnika va uskunalarning mavjudligi, ishlab chiqarilgan maxsulotni sotish va sof daromad (foyda) olishni nazorat qilish bilan organik ravishda bogʻlangan xolda, xoʻjalikning butun tezkor faoliyatini qamrab oladi.

oʻUrganch yogʻ-moyö OAJning asosiy faoliyat turi hisoblangan maxsulot (ish, xizmat)lar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari toʻgʻrisidagi axborotlarni

umumlashtirish jamiyatning hisob siyosatida 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetida amalga oshirish koʻrsatilgan.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetining debeti boʻyicha maxsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar koʻrsatish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan toʻgʻri xarajatlar shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan egri xarajatlar va yaroqsiz maxsulot hisobiga yoʻqotishlar aks ettiriladi.

Maxsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat koʻrsatish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan toʻgʻri xarajatlar 2010 - «Asosiy ishlab chiqarish» schetiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga xaq toʻlash boʻyicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schetlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetiga 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schetining kreditidan hisobdan chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan egri xarajatlar 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetiga 2510 «Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari»schetidan hisobdan chiqariladi.

Yaroqsiz maxsulot hisobiga yoʻqotishlar 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetiga 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz maxsulotlar» schetidan hisobdan chiqariladi.

2010 ó «Asosiy ishlab chiqarish» schetining kreditida tugallangan maxsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarishning xaqiqiy tannarx summaları aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 ó «Asosiy ishlab chiqarish» schetidan 2810 «Ombordagi tayyor maxsulotlar», 9110 «Sotilgan tayyor maxsulotlarning tannarxi, 9130 «Bajarilgan ish va xizmatlarning tannarxi» schetlarining debetiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

2010 ó «Asosiy ishlab chiqarish»scheti boʻyicha oy oxiridagi qoldik tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini koʻrsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan maxsulotlarning turlari boʻyicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari boʻyicha guruhlanishi shuningdek, kalkulyatsion hisob aloxida schetlar tizimida amalga

oshiriladi. Ushbu schetlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini xar bir korxonaning o'zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi hamda schetlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 ó «Asosiy ishlab chiqarish» schetining analitik hisobi xam korxonaning aloxida bo'linmalari bo'yicha yuritiladi.

Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schetlar (2000)ning bog'lanishi.

1. Bevosita maxsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da qatnashadigan asosiy vositalarning eskirishi

Debet	Kredit
2010	0211-0299

2. Maxsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga taalluqli bo'lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi.

Debet	Kredit
2010	0510-0590

3. To'g'ri material xarajatlari maxsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga hisobdan chiqariladi

Debet	Kredit
2010	1010-1090

4. O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor maxsulotlarni qayta ishlash uchun asosiy ishlab chiqarish tsexlariga chiqarish

Debet	Kredit
2010	2110

5. Yordamchi tsexlarning xarajatlarini asosiy ishlab chiqarishning maxsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritish

Debet	Kredit
2010	2310

2-BOB Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida õUrganch yogõ-moyõ ochiq aksiyadorlik jamiyatida tannarxni shakllanishi va unga taõsir qiluvchi omillar tahlili

2.1. õUrganch yogõ-moyõ ochiq aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holati tahlilining oõziga xos xususiyatlari

«Urganch yogõ-moy» Ochiq Aksiyadorlik Jamiyati Oõzbekiston Respublikasi Davlat Mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qoõllab quvvatlash Davlat qoõmitasining 1994 yil 18 avgustdagi 538 K- O õsonli buyrugõ asosida Urganch yogõ-moy kombinatini davlat tasarrufidan chiqarish yoõdi bilan tuzilgan. «Urganch-yogõ» Oõzbekiston-Shveytsariya Xorijiy Investitsiyalar Ishtirokidagi Ochiq Aksiyadorlik Jamiyati, Xorazm viloyati Urganch shahar Xokimining 2003 yil 11-oktyabrdagi 1470-sonli qarori bilan qayta tashkil boõlib, yangi taxrirdagi Nizomi roõyxatga olingan. Xorazm viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 2003 yil 30 dekabrda 49-son bilan roõyxatdan oõtgan va guvohnoma berilgan.

2003 yil 25 sentyabrdagi 504-sonli shartnomaga asosan «Urganch-yogõ» OAJning aksiyalarini 50,2 foizini Shveytsariyaning «FLOIL Ltd» kompaniyasi sotib olganligi asosida jamiyat xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonaga maqomiga ega boõdigan va raqobatni rivojlantirish Respublika Davlat qoõmitasining 2003 yil 4 sentyabrdagi xoõjalik subektlaridagi aksiyalar paketining 35 foizidan ortigõni sotib olish toõgõrisidagi R-05-2/66-sonli qaroriga asosan jamiyatda aksiyalar paketini sotib olish boõyicha yagona yuridik shaxs chet el investori boõdigan Shvetsariyaning «FLOIL Holdin LTD» kompaniyasi xisoblangan.


«Urganch yogõ-moy» ochiq aksiyadorlik jamiyati 1994 yil oktyabr oyida xususiylashtirilgan boõlib, oõtgan davr mobaynida etti marta Nizom jamgõarmasi koõpaytirilgan va aksiyalar paketi turli xil miqdorda taqsimlangan. Jamiyat Nizom jamgõarmasining koõpaytirilishi 2012 yilning 10 martida amalga oshirilib, jamiyat aksiyadorlarining umumiy yigõilishi qarori bilan Nizom jamgõarmasi 3025800,0 ming soõm qilib belgilangan. Jamiyat Nizom jamgõarmasining oshirilishi munosibati bilan

nominal qiymati 1800 soʻm boʻlgan 781000 dona oddiy aksiya chiqarilib Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mulk qoʻmitasiga joylashtirilgan.

Jamiyatni Nizom jamgʻarmasi koʻpaytirilgandan keyin aksiyalar paketi quyidagi miqdorda taqsimlangan:

Mehnat jamoasi ulushi-	3,95 foiz	66383 dona aksiya	119489,4 ming soʻm
Erkin savdo ulushi	-9,30 foiz	156375 dona aksiya	281475,0 ming soʻm
Davlat ulushi	-59,85 foiz	1006000 dona aksiya	1810800,0 ming soʻm
Chet el investori	-26,90 foiz	452242 dona aksiya	814035,6 ming soʻm

Har bir dona aksiyaning nominal qiymati 1800 soʻm boʻlib jamiyat aksiyalaridan 1676458 donasi oddiy egasi yozilgan aksiya, qolgan 4542 donasi egasi yozilgan imtiyozli aksiyani tashkil qiladi.



2.1.1 - diagramma.öUrganch yogʻ-moyöOAJning ustav fondi tarkibi⁹.

Jamiyatning Nizomi boʻyicha asosiy faoliyat turlari.

-tozalangan paxta yogʻi hamda boshqa oziq-ovqat va yogʻ-moy maxsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish va chiqarish;

⁹ Jamiyat Nizomi

-yuvish vositalari, shu jumladan xoʻjalik sovuni va boshqa texnikaviy maxsulotlarini ishlab chiqarish.

-ozuq- ovqat, non, konserva maxsulotlarini ishlab chiqarish;

-umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlar koʻrsatish;

-qishloq xoʻjalik va chorvachilik maxsulotlarini hamda boshqa isteʼmol mollarini qayta ishlash, tayyorlash va sotish;

-avtotransport xizmatlari va ishlari, shu jumladan yuk va yoʻlovchilarni tashish boʻyicha avtotransport hamda boshqa xarakat texnik vositalarini taʼmirlash va ularga texnik xizmat koʻrsatish;

-oʻz maxsulotlari va xalq isteʼmol mollarini, shu jumladan shrot, sheluxa va gudron ishlab chiqarish;

-aholi, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga turlicha koʻrinish va shakllarda pulli xizmat, shu jumladan maishiy xizmatlarni koʻrsatish;

-ulgurji va chakana savdo faoliyati bilan shugʻullanish;

-xalq isteʼmoli mollari ishlab chiqarish, texnik yoʻnalishdagi xalq ijodiyoti maxsulotlarini ishlab chiqarish;

-Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga amal qilingan xolda valyuta moliya operatsiyalarini va qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish.

Urganch yogʻ-moyö OAJ oʻz faoliyati davomida yillar mobaynida yuksalib, ijobiy natijalarga erishib kelgan. Men oʻz bitiruv malakaviy ishimda tashkilotning 2012 yil va 2013 yil koʻrsatkichlarini oʻrganib tahlil qilishga, faoliyatini oʻrganib baho berishga harakat qildim.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda, xalqimiz farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan sohalardan biridir. Shu bois ham, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mazkur sohaga alohida etibor qaratilib kelinmoqda. Oʻtgan yillar davomida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan oʻnlab ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etildi, mavjudlari modernizatsiya qilindi. Natijada, tarmoq korxonalari oʻz mahsulotlari bilan nafaqat ichki bozorlarni toʻldirmoqda balki chet mamlakatlarga ham mahsulot

eksport qilish imkoniyatiga ega. Ana shunday korxonalaridan biri o'Urganch yog'moy' OAJda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va sifatini yaxshilash yuzasidan izchil va samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish sexlari modernizatsiya qilindi, texnik va texnologik qayta jihozlash tadbirlari amalga oshirildi.

Keng ko'lamli modernizatsiyalash ishlari natijasida korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari sezilarli darajada ortib, bu yerda kuniga 800 tn paxta chigiti, 400 tn soya va 200 tn kungaboqar doni qayta ishlanmoqda. SHuningdek ,kuniga 135 tn tozalangan paxta yog'i, 40 tn plastik idishlarda qadoqlangan yog'i, 48 tn xo'jalik sovuni va 20 tndan ziyod olein, palmitin yog' kislotalari ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, 2012-yilda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini bajarish mobaynida jami 98119 tonna paxta chigiti, 2539 tonna soya va 384 tonna kungaboqar doni qayta ishlandi. Hatijada korxonada 16967 tonna rafinatsiyalangan yog' ishlab chiqarilib, uning 4688 tonnasi oily navni tashkil qildi. Korxonada shuningdek aholi istemoli uchun 8415 tonna hidsizlantirilgan, plastik idishlarga qadoqlangan o'simlik yog'i, 49841 tonna shrot hamda 27018 tonna sheluxa ishlab chiqarildi.

Jumladan korxonada ish unumdorligini oshirish uchun gidrogenizatsiya sexi tashkil qilindi va bunung natijasida 5383 tonna salomas ishlab chiqarildi yoki o'tgan yilga nisbatan 154 foiz o'sishga erishildi. Shuningdek, 5831 tonna xo'jalik sovuni ishlab chiqarilib , bu boradagi yillik o'sish 117 foizga, shundan 944,6 tonna sovun xorijga chiqarilib, eksport bo'yicha reja 104,5 foizga bajarildi. Respublika mahalliyashtirish dastiriga kiritilgan olein-palmetin yog' kislotalari qorishmasi ishlab chiqarish esa 2087 tonnani tashkil qilib, bu boradagi ko'rsatkich 104,3 foizni tashkil qildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2012-yilda jami 58 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilga nisbatan 110,9 foiz o'sishga erishdi. Aholi iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi ham 2012-yilda oldingi yilga nisbatan 100,3 foizga o'sib, 47,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu kabi ijobiy natijalar albatta, korxonada daromadini ko'paytiradi .Bu borada o'Urganch yog'moy' OAJ arzigulik

natijalarga erishdi, ya'ni yil yakuni bo'yicha barcha to'lovlardan keyingi sof foyda 4,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

O'tgan yil davomida investitsiya dasturini bajarishga korxonalar o'z mablag'lari hisobidan 2,9 mlrd so'm xarajat qilib, uning 1,7 mlrd so'mi qurilish montaj ishlari, 1,2 mlrd so'mi texnologik uskuna, ehtiyot qismlar, inventarlar xarid qilish uchun sarflandi. Bular jumlasiga "Korovka" konfeti texnologik tizimi, plastic idishlar tayyorlab, ularga 1,5 l hajmdagi yog' qadoqlash avtomatik liniyasi, "Armstrong" kondensat qaytargichlari va hokazolar kiradi.

2013 yilda istiqbol rejasi bo'yicha investitsiya xarajatlariga ham katta miqdorda aniqroq jami 9,5 mlrd so'm sarflandi. Shundan 1,5 mlrd so'm kapital va joriy tamirlashga, 2,4 mlrd so'm yangi uskunalar sotib olishga, 5,6 mlrd so'm qurilish ishlariga yo'naltirilishi rejalashtirildi. Umuman, jamiyatda 2013 yilda ikkita investitsiyaviy loyihani amalga oshirish yuzasidan ish olib borildi va joriy yilda ham davom qilmoqda, ya'ni:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 oktabrdagi qaroriga asosan "Salomasdan distillangan gilitsirin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni tashkil qilish". Ushbu loyihani umumiy qiymati 2 mln 350 ming AQSH dollariga teng bo'lib, loyiha amalga oshirilishi natijasida yiliga 5000 tonna salomasdan 500 tonna glitserin va 4500 tonna yog' kislotalari ishlab chiqariladi. Buning hisobiga esa korxonalar qo'shimcha 1,1 mlrd so'mlik maxsulot ishlab chiqarishga erishadi. Natijada avvallari import qilib kelingan 750 ming AQSH dollariga teng maxsulot o'zimizda ishlab chiqariladi. SHuningdek 300 ming AQSH dollariga teng maxsulotni eksport qilishga erishiladi hamda 20 ta yangi ish o'rini yaratiladi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 25 iyuldagi qaroriga asosan "Sanoat korxonalarini energiya samaradorligini oshirish loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit mablag'lari asosida bug' qazon sexini rekonstruksiyalash ishlari amalga oshirildi. Natijada, yiliga 495 ming kvv/s elektr energiyasi, 3,6 mln kub.m tabiiy gaz va 45 ming kub.m suv tejaldi. Bu moliyaviy nuqtai nazardan korxonalar uchun nihoyatda foydalidir. Misol

uchun, jamiyat hozirgi kunda bir gkal issiqlik energiyasini 35000 soʻmdan sotib olmoqda, loyiha amalga oshirilgach, uning tannarxi 21950 soʻmni tashkil qiladi yoki yiliga 979,4 mln soʻm mablagʻ tejalalib maxsulot tannarxi arzonlashadi.

Qolaversa ushbu ikki loyiha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida sanoat salohiyatining rivojlantirish dasturi toʻgʻrisida oʻgri qaroriga ham kiritilgan boʻlib , ayni kunlarda korxonalar raxbariyati va muxandis oʻtexnik xodimlari mazkur loyihalarni belgilangan muddatlarda bajarilishini taʻminlash maqsadida bor imkoniyatlarini ishga solmoqdalar.¹⁰

Urganch yogʻ-moy oʻAJ mablagʻlar tahlili¹¹

2.1.1- jadval.

(Ming soʻm)


	Ko'rsatkichlar nomi	2012-yil	2013-yil	o'zgarishi	o'sish sur'ati
	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	13 852 068	15768 170	1 916 102	113,8
2	Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	1 168 408	1 108 232	-60 176	94,8
3	Uzoq muddatli investitsiyalar	521 934	1 296 625	774 691	248,4
4	O'rnatiladigan asbob-uskunalar	264 089	280 333	16 244	106,2
5	Kapital qo'yilmalar	2 602 289	1 792 519	-809 770	68,9
6	Tovar moddiy zaxiralari	8 508 525	12 587 282	4 078 757	147,9
7	Kelgusi davr xarajatlari	128 590	53 909	-74 681	41,9
	Kechiktirilgan xarajatlar	410 623	410 623	0	100,0

¹⁰ Oʻzbekiston iqtisodiy axborotnomasi 2013 yil 1-son,60-61 betlar.

¹¹ Urganch yogʻ-moy oʻAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

8					
9	Debitor qarzlari	4 714 271	7 142 051	2 427 780	151,5
10	Pul mablag'lari	5 734 943	2 773 757	-2 961 186	48,4
11	Jami:	37 905 740	43 213 501	5 307 761	114,0

2.1.1- jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jamiyat mol-mulkinging 2012 yil va 2013 yil ko'rsatkichlarini solishtirganimizda asosiy vositalarning qoldiq qiymati 2013 yil, 2012 yilga nisbatan 113,8 % ni tashkil etgan, nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 94,8 %ni tashkil etgan. Uzoq muddatli investitsiyalar 2013 yil 2012 yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 248,4 % ni tashkil etadi. O'rnatiladigan asbob-uskunalar 2013 yil 2012 yilga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni berdi. Kapital qo'yilmalar 2013 yil 2012 yilga nisbatan 68,9 %ni ko'rsatdi. Tovar moddiy zaxiralari 2013 yil 2012 yilga o'sish sur'ati 147,9 %. Kelgusi davr xarajatlari 2013 yil 2012 yil 41,9 %. Kechiktirilgan xarajatlar 2012 yil 410623 ming so'm, 2013-yilda ham 410623 ming so'mni tashkil etgan. Debitor qarzlari 2012 yilda 2013 yilga nisbatan o'sish sur'ati 151,5 %ni tashkil qilgan.



2.1.2 - diagramma.öUrganch yogʻ-moyöOAJ mablagʻlari tarkibi.(2013 yil)¹²

öUrganch yogʻ-moyöOAJ mablagʻlari manbai dinamikasi tahlili¹³

2.1.2 jadval

(Ming soʻmda)


	Ko'rsatkichlar nomi	2012	2013	o'zgarishi	o'sish sur'ati
1	Ustav kapitali	3 025 800	3 025 800	0	100
2	Rezerv kapitali	8 482 091	10 060 082	1 577 991	118,6
3	Taqsimlanmagan foyda	6 803 936	8 814 513	2 010 577	129,6
	Jami xususiy kapital	18 311 827	21 900 395	+3 588 568	119.6
4	Maqsadli tushumlar	629 824	629 824	0	100,0

¹² öUrganch yogʻ-moyöOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

¹³ öUrganch yogʻ-moyöOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi

5	Uzoq muddatli majburiyatlar	4 917 126	6 117 122	1 199 996	124,4
6	Kreditor qarzar	6 341 588	6 960 808	619 220	109,8
7	Ajratilgan bo'linmalarga qarz	397 311		-397 311	0,0
8	Qisqa muddatli bank kreditlari	7 308 064	7 605 352	297 288	104,1
	Jami majburiyatlar	19 593 913	21 313 106	+1 719 193	108.8
	Jami:	37905740	43213501	5307761	114,0

Jadvalda jamiyatning mablagʻlari manbaini tahlil qilib, 2012 yil va 2013 yil koʻrsatkichlarini solishtirib oʻrganib chiqdik. Jadval shularni koʻrsatadiki, unga koʻra rezerv kapitali 2013 yil 2012 yilga nisbatan 118,6 % ga oʻtdi, taqsimlanmagan foyda 2013 yil 2012 yilga nisbatan 129,6 % ni, maqsadli tushumlar esa 100 % ni , uzoq muddatli investitsiyalar 2013 yil 2012 yilga nisbatan 109,8 % ni, ajratilgan boʻlinmalarga qarzar 0 % ni , qisqa muddatli bank kreditlar esa 2013 yil 2012 yilga nisbatan 104,1 % ni, jami 114,0 % ni tashkil qilgan. Jamiyat mablagʻlar manbai asosida uning moliyaviy barqarorligiga baho berarkanmiz 2012 yilda ushbu koʻrsatkich 48.3 foizni tashkil qilgani holda, 2013 yilda 50.7 foizni tashkil qilib, jamiyat ijobiy tomonga oʻzgargan.



2.1.3 - diagramma. öUrganch yogø-moyö OAJ mablaglari manbai tarkibi.(2013)¹⁴

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil o' keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalarni borligini bilish;
- moliyaviy tahlil mobaynida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish;
- moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga - alohida hodisalardan umumiy hodisalarga o'tish, moliyaviy holatning bir shakl ko'rinishidan umumiy ko'rinishga o'tish va deduktiv usulga - umumiy hodisalardan alohida hodisalarga o'tishga asoslanib tahlil qilish;

¹⁴öUrganch yogø-moyöOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

- hamma foydalanilayotgan ko'rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;

- moliyaviy holatni tahlil qilishda tahlil qilinayotgan korxonalar ko'rsatkichlarini boshqa korxonalar, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari va ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo'lishligi va korxonalarining umumiy moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish;

- moliyaviy tahlilni samarali o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish;

- moliyaviy tahlil obyektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarining moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;

- moliyaviy tahlil o'z vaqtida o'tkazilib, tahlil yakunlariga asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralarini o'z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;

- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o'tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo'nalishlari ifodalanishi lozim;

- moliyaviy tahlil o'z vaqtida va haqqoniy bo'lib, u moliyaviy holatni ko'zga tashlashga bag'ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi;

- moliyaviy holatni tahlil qilish shunday vaqtda o'tkazilishi lozimki, tahlil yakunlari qo'yilgan maqsadni amalga oshirib, korxonalar boshqaruvini takomillashtirishga imkoniyat tug'dirishi lozim;

- moliyaviy tahlil barcha yig'ilgan va umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, kerakli ko'rsatkichlardan foydalanib, bu ko'rsatkichlarning asosligi to'g'ri usullarda aniqlanishi lozim.¹⁵

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda 2012 yil va 2013 yilda tashkilotning moliyaviy holatini baholashga, o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishga harakat qildim. 2.1.3- jadvalda tashkilotning ikki yillik moliyaviy holat

¹⁵ E.A. Akramov. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. 6 T., 2007.

ko'rsatkichlarini o'rganib chiqdim. Ushbu jadvaldan 2012 yil va 2013 yilda moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarida qanday o'zgarishlar va o'zgarish sur'atlari bo'lgani haqida malumot olish mumkin.

o'Urganch yog'moyö OAJning moliyaviy natijalar 2012-2013 yillar dinamikasi tahlili.¹⁶

2.1.3- jadval

(Ming so'm)

	Ko'rsatkichlar nomi	yillar		o'zgarishi (+;-)	O'zgarish sur'ati
		2012	2013		
1	Sotishdan tushgan pul	60561585	71578107	+11016522	118,2
2	Sotilgan maxsulot tannarxi	38993617	46853733	+7860116	120,2
3	Sotishdan olingan foyda (1-2)	21567968	24724374	+3156406	114,6
4	Davr xarajatlari	15045836	18435228	+3389392	122,5
5	Asosiy faoliyatdan boshqa daromad	539978	379296	-160682	70,2
6	Asosiy faoliyat foydasi (3-4+5)	7062110	6668442	-393668	94,4
7	Moliyaviy faoliyat boshqa daromadi	354780	295693	-59087	83,3
8	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	1133226	1344579	+211353	118,7
9	Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda(6+7-8)	6283664	5619556	-664108	89,4
10	Foyda solig'i	950836	860939	-89897	90,5
11	Foydadan boshqa soliqlar	425156	377011	-48145	88,7
12	Sof foyda(9-10-11)	4907672	4381606	-526066	89,3

¹⁶ o'Urganch yog'moyöOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

2.1.3 - jadvalda sotishdan tushgan pul 2013 yilda 2012 yilga nisbatan oʻsish surʼati 118,2 % ni tashkil etgan, bu esa ijobiy holat deb baholanib, sotish hajmi oshganini, mahsulot ishlab chiqarish koʻpayganini, mahsulot tannarxini kamaytirishga erishilganini izohlaydi. Sotilgan mahsulot tannarxi 2013 yil 2012 yilga nisbatan esa 120,2 % ni tashkil etib, bu mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshganini koʻrsatadi. Sotishdan olingan foyda 114,6 % ni tashkil etgan. Davr xarajatlari 122,5 % ni, asosiy faoliyatdan boshqa daromad 70,2 % ni, asosiy faoliyat foydasi 94,4 % ni, moliyaviy faoliyat boshqa daromadi 83,3 % ni, moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajat 118,7 % ni, daromad soligʻi toʻlagunga qadar foyda 89,4 % ni, sof foyda 89,3 % ni tashkil etgan.

Jamiyatda rentabellik koʻrsatkichlari mos ravishda 12.5 foiz va 9.35 foizni tashkil qilgan. Bunga sabab, sof foydani davr xarajatlarini oshganligi bilan kamayishi deb izohlash mumkin.

2.2. ōUrganch yogʻ-moyō OAJda mahsulot tannarxi va unga taʼsir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish

Mahsulot ishlab chiqarish harajatlarining uzluksiz pasayishi bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish usulining qonuniyatidir. U mehnat unumdorligining tuxtovsiz oʻsishi, mehnatkashlar madaniy, texnikaviy darajasini yuksalishi, moddiy va mehnat resurslaridan ratsional foydalanish, xujalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan taʼminlanadi.

Ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirishning ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda, chunki uni pasaytirishning har bir foizi absolyut hajmni oshirib yuboradi. Yaʼni korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini 1%ga kamaytirish evaziga korxonada ancha miqdorda moliyaviy resurslarini iqtisod qilishga erishadi. Bu har qanday korxonaning oldiga turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish harajatlarining pasaytirishning yullarini keltiramiz. Ishlab chiqarish harajatlarining pasaytirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta taʼsir koʻrsatadi. Yangi texnikani joriy qilish va mahsulot tayyorlash

texnologiyasini takomillashtirish jarayonlarning kamayishiga kompleks taʼsir koʻrsatadi. Ular moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi jixozlarni zamonaviylashtirish hamda qoʻllanilayotgan texnikadan foydalanishni hisobiga ishlab chiqarish harajatlarini anchagina kamaytirishga erishish mumkin. Yangi texnika va progressiv texnologiya asosida oʻtgan va jonli mehnatni tejashga erishiladi. Moddiy resurslarda buyumlashgan oʻtgan mehnatni tejash xuddi shu miqdordagi xom - ashyo va materiallardan koʻproq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Jonli mehnat sarfini tejash mahsulot unumdorligini oshirish imkonini beradi, yaʼni har bir ishchiga hisoblanaganda koʻproq mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bunga fan-texnika taraqqiyoti yordam beradi. Yangi texnika va ilgʻor texnologiya ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish asosida mehnat unumdorligi oshib boradi bu esa ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Moddiy va pul mablagʻlarini sarflashda katʼiy iqtisodiy tejashga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Asbob uskunalarni asrashga doir sarflarini kamaytirish, material shuningdek ishlab chiqarish chiqindilaridan maksimal foydalanish. Brak natijasida ruy beradigan nobudgarchiliklarni kamaytirish fondlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish xaqi fondini ratsional sarflash tsex va umumzavod harajatlarini kamaytirish - bularning barchasi u yoki bu darajasida mahsulotning arzonlashuviga taʼsir koʻrsatadi.

Moddiy texnika taʼminotini yaxshilash ishlab chiqarish harajatlarini kamaishiga olib keladi. Korxonaning xom-ashyo material, yoqilgʻi va energiya etkazib berishning uzilib qolishi ishlab chiqarish ritmini buzishga bekor turtib qolishlariga oy oxirida xaybarakallachilikka va oqibat natijada unumsiz harajatlarga olib keladi. Korxonada itisodiyotga xaddan tashqari normativdan ortiqcha zapaslarni boʻlishi xam salbiy taʼsir koʻrsatadi. Zapas koʻpayib ketganda oborot mablagʻlari oshib ketadi, moliyaviy axvol yomonlashadi, ishlab chiqarishning rentabelligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga mehnatni tashkil etishda takomillashtirish taʼsir koʻrsatadi. Har qanday texnikadan xatto yangisidan xam ishlab chiqarishni toʻgʻri tashkil qilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik jarayonlarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta eʼtibor berish kerak.

Mahsulot tannarxini pasaytirishda hisobotning roli kattadir. Xisob olib borish yoqilgʻi va energiyadan, xom ashyo va materiallardan ratsional foydalanishga yordam beradi, harajatlarni kamaytirish va korxonada jamgarmasini oshirish imkonini beradi. Jamoaning kuchini yetishtiriladigan mahsulotning tannarxini pasaytirishga qaratish uchun ishlab chiqarishga qilinadigan harajatlarni toʻgʻri rejalashtirish va hisobga olish zarur. Iqtisod qilish yoʻllarni aniqlash ortiqcha harajatlarning sababini ochib tashlash uchun bu harajatlarni doimi tahlil qilib turish kerak. Ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini tahlil qilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarni takomillashtirilishi uchun muxim ahamiyatga ega. Lekin tahlil faqatgina tannarxning pasaytirish rejasini bajarilishiga qoʻyilgan baho bilan chegaralanmaydi, u ishlab chiqarish harajatlarini yanada kamaytirish uchun taxliliy va texnikaviy harakatlarni xam koʻrishi kerak.

Mahsulot ishlab chiqarishni tahlil qilishda ishchilarning faol ishtirok etishlari uni pasaytirishning muxim yoʻlidir.

Xarajatlar korxonaga bogʻliq boʻlmagan omillarga qarab oʻzgaradi. Masalan; resurs narxi, har xil xizmat xaqining tebranishi korxonada xohishidan qatʼiy nazar harajatlarni oʻzgartiradi. Korxonada ishlab chiqarish koʻlami kengaysa, resurslar sarfi qisqaradi, chunki ular kamroq isrof etiladi. Resurslarni tejoychi texnologiya joriy etilganda harajatlar keskin qisqaradi. Oʻrtacha harajatlar mehnat unumdorligiga nisbatan teskari mutanosiblikda oʻzgaradi. Mehnatni unumining ortishi ham moddiy ham mehnat sarfini qisqartiradi, bozordagi narx binobarin tovar barqaror sharoit va mehnat unumdorligi harajatlari pasaytirish orqali foydani koʻpaytiradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxonada foydasini oshirishning asosiy vositasi boʻlib xizmat qiladi. Zero mahsulot baxosi tarkibining asosiy

elementlari bu harajat va foydadir. Binobarin xarajatlar qanchalik qisqarib borsa, shunga mos foyda oshib boradi.

Mahsulot tannarxi deb anashu mahsulotni ishab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni puldagi ifodasiga aytiladi.

Tannarx obyektlariga olib borish usuliga qarab, u bevosita(toʻgʻri) va bilvosita(egri) xarajatlarga boʻlinadi.

Bevosita(toʻgʻri) xarajatlar-bu aniq tannarx obyektiga iqtisodiy mohiyatiga koʻra toʻgʻridan-toʻgʻri identifikatsiyalanadigan(olib borish mumkin boʻlgan) xarajatlardir, masalan stol ishlab chiqarishdagi taxtani aniq stol turiga olib borilishi mumkin. Xuddi shuningdek, agar u yoki bu stolni ishlashda muayyan ishchilarning sarflagan ish soatlari aniq boʻlsa, ish haqi xarajatlarini ham stol turlariga toʻgʻridan-toʻgʻri identifikatsiyalash mumkin. Shu bois, bu xarajatlarni bevosita(toʻgʻri)xarajatlarga kiritishimiz mumkin.

Bilvosita xarajatlar (toʻgʻri boʻlmagan) xarajatlar- bu aniq tannarx obyektiga iqtisodiy mohiyatiga koʻra toʻgʻridan-toʻgʻri identifikatsiyalanmaydigan(olib borish mumkin boʻlmagan) xarajatlardir. Masalan, mahsulot sifati boʻyicha inspektorning ish haqi, ishlab chiqarish binosining ijara xarajatlarini u yoki bu mahsulot turiga toʻgʻridan-toʻgʻri olib borish imkoni yoʻq va shu bois, bunday xarajatlar bilvosita xarajatlar sifatida tan olinishi lozim. Baʼzi xollarda ayrim turdagi xarajatlarni u yoki bu turdagi mahsulotlarga olib borish imkoni boʻlsada, ularning iqtisodiy salmoqliligi va hisob xarajatlarini kamaytirish maqsadida ular bilvosita xarajat sifatida hisobga olinadi. Masalan stol ishlab chiqarishda ishlatiladigan mix va boshqa yordamchi materiallarning qiymatini u yoki bu turdagi materiallar qiymatiga toʻgʻridan-toʻgʻri olib borish imkoni boʻlsada, ushbu xarajatlarning salmoqliligi tifayli va hisob kitoblarni qiyinlashtirmaslik maqsadida bilvosita xarajatlarga olib boriladi.

Bevosita va bilvosita xarajatlarni farqlash tannarx obyektiga bogʻliq boʻladi. Masalan, ishlab chiqarish asbob-uskunalariga xizmat koʻrsatuvchi ustaning ish haqi, agar tannarx obyekti ishlab chiqarish sexi boʻlsa, u bevosita xarajat boʻlishi mumkin, agar tannarx obyekti mahsulotlar boʻlsa, u holda ustaning ish haqi bilvosita xarajat boʻladi.

Tannarxning shakllanishi bevosita ushbu tasnifga tayanadi. Unga muvofiq hisobotlarda aks ettirilayotgan ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi, sotilgan mahsulot tannarxi o'z tarkibida bevosita va bilvosita xarajatlardan tarkib topadi. Bevosita xarajatlar tannarx obyektida to'g'ridan-to'g'ri o'tiradi. Bilvosita xarajatlar bir qancha tannarx obyektlariga taqsimlash bazalari asosida olib boriladi.

Urganch yog'moy OAJda mahsulot tannarxi tarkibini ko'rib chiqamiz.

õUrganch yogø-moyø OAJ ning asosiy faoliyat turi bo'yicha 2009-2013 yillardagi ko'rsatkichlar dinamikasi tahlili¹⁷


2.2.1-jadval

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar nomi	2009y	Sal mo gøi	2010y	Sal mo gøi	2011y	Salm ogøi	2012y	Sal mo gøi	2013y	Sal mogøi
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan maxsulot(ishlar,xizmatlar)ning qiymati (QQS va aksizsiz)	26266385		30285481		44695380		58059771		65406193	
Jami xarajatlar	26400495	100%	29548569	100%	47037604	100%	57534377	100%	65666076	100%
Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	21789675	82,5	24576507	83,2	33405919	71,0	42488541	73,8	47230848	71,9
Davr xarajatlari	4460672	16,9	4841530	16,4	11609584	24,7	15045836	26,2	18435228	28,1
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	150148	0,7	130532	0,5	2022101	4,3		0		0

¹⁷ õUrganch yogø-moyøOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

"Urganch yog'-moy" OAJda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi 2009-2013 yillar dinamikasi (ming so'm)



2.2.1-diagramma.¹⁸

¹⁸ ōUrganch yogʻ-moyōOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

õUrgach yogõ-moyõ OAJ ning mahsulot tannarxi tarkibi xarajatlari bo'yicha 2009-2013 yillardagi ko'rsatkichlar dinamikasi tahlili¹⁹ (ming so'm)

2.2.2-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	2009yil	Sal mo g'oi	2010yil	Sal mo g'oi	2011yil	Sal mog'oi	2012yil	Sal mog'oi	2013yil	Sal mo g'oi
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan maxsulot (ishlar,xizmatlar)ning qiymati (QQSva aksizsiz)	26266385		30285481		44695380		58059771		65406193	
Jami xarajatlar	26400495	100%	29548569	100%	47037604	100%	57534377	100%	65666076	100%
Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	21789675	82,5	24576507	83,1	33405919	71,2	42488541	73,8	47230848	71,9
Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytadigan chiqindilarni chegirgan holda)	19626580	74,3	22235920	75,2	30560372	65,0	35193920	61,2	37597087	57,3
Ishlab chiqarish tarzidagi ish haqi xarajatlari	1199230	4,4	1311874	4,4	1326800	2,8	4296583	7,5	6263602	9,5
Ishlab chiqarish ijtimoiy sug'urta ajratmalari	287815	1,1	327968	1,1	331700	0,7	1074146	1,9	1565901	2,4
Asosiy vositalar va ishlab chiqarish nomoddiy aktivlar	676050	2,6	700745	2,4	1187047	2,5	1923892	3,5	1804258	2,7

¹⁹ õUrgach yogõ-moyõOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi

amortizatsiyasi										
Davr xarajatlari	4460672	16,9	4841530	16,4	11609584	24,7	15045836	26,2	18435228	28,1
Sotish xarajatlari	669680	2,5	873931	3,0	1656764	3,5	2145989	3,7	1538421	2,3
Ma'muriy xarajatlar	886200	3,4	709672	2,4	1020475	2,2	1682109	2,9	2671138	4,1
Boshqa muomala sarf xarajatlari	2904792	11,0	3257927	11,0	8932345	19,0	11217738	19,5	14225669	21,7
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	150148	0,6	130532	0,4	2022101	4,3				
Bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar			130476	0,4	1668795	3,6				
chet el valyutasi operatsiyalari bo'yicha salbiy qiymatli farq va zarar	150148	0,6	56	0,02	353306	0,8				

2.2.2-jadvalda korxonadagi xarajatlar oʻzgarishini koʻrishimiz mumkin. Korxonada ishlab chiqarish faoliyatidagi 2009-2013 yillardagi xarajatlarni oʻrganib chiqdim. Bunga koʻra jamiyatning jami xarajatlari yildan yilga oʻsib borganini koʻrishimiz mumkin, lekin bu koʻrsatkich jamiyat faoliyatini tahlil qilishga imkon bermaydi. Jamiyat faoliyatini tahlil qilish uchun jami xarajat tarkibiga kiruvchi xarajatlarni oʻrganib chiqishimiz kerak, yaʼni induktiv tahlil qilamiz umumiylikdan birlikka qarab. Jami xarajatlar: ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi tarkibiga ishlab chiqarish moddiy xarajatlari, ishlab chiqarish tarzidagi ish haqi xarajatlari, sugʻurta ajratmalari, amortizatsiya xarajatlari kiradi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi jami xarajatga nisbatan 2009-2013 yillarda mos ravishda 82,5%, 83,7%, 71,2%, 73,8%, 71,9% ni tashkil etgan, 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 10,6% ga kamayishni koʻrish mumkin, moddiy xarajatlar esa mos ravishda 74,3%, 75,2%, 65,0%, 61,2%, 57,3% ni, ish haqi xarajatlari 4,4%, 4,4%, 2,8%, 7,5%, 9,5% ni, sugʻurta ajratmalari 1,1%, 1,1%, 0,7%, 1,9%, 2,4% ni, amortizatsiya xarajatlari esa mos holda 2,6%, 2,4%, 2,5%, 3,5%, 2,7% ni tashkil etgan. Davr xarajatlari oʻz ichiga sotish xarajatlari, maʼmuriy xarajatlar, boshqa muomala sarf xarajatlarini oladi. Davr xarajatlari jami xarajatga nisbatan 2009-2013 yillarda mos ravishda 16,9%, 16,4%, 24,7%, 26,2%, 28,1% ni tashkil qilib, 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 4,2% ga oʻsgan. Sotish xarajatlari 2,5%, 3,0%, 3,5%, 3,7%, 2,3% ni, maʼmuriy xarajatlar 3,4%, 2,4%, 2,2%, 2,9%, 4,1% ni, boshqa muomala sarf xarajatlari 11,0%, 11,0%, 19,0%, 19,5%, 21,7% ni tashkil etgan. Moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar 2009-2011 yillarda boʻlgan, mos ravishda jami xarajatga nisbatan 0,6%, 0,4%, 4,3% ni koʻrsatgan, keyingi yillarda moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar boʻlmagan sababi keyingi yillarda bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari boʻyicha foizlar va chet el valyutasi operatsiyalari boʻyicha salbiy qiymatli farq va zararlar mavjud emas.


õUrganch yogõ-moyõ OAJ ning mahsulot tannarxidagi xarajatlarning ulush bo'yicha 2009-2013 yillardagi ko'rsatkichlar dinamikasi tahlili²⁰ (ming so'm)

2.2.3-jadval

	2009		2010		2011		2012		2013	
Ko'rsatkichlar nomi	xarajatlar	ulushi	xarajatlar	ulushi	xarajatlar	ulushi	xarajatlar	ulushi	xarajatlar	ulushi
Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	21789675	100%	24576507	100%	33405919	100%	42488541	100%	47230848	100%
Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytadigan chiqindilarni chegirgan holda)	19626580	90,1	22235920	90,5	30560372	91,5	35193920	82,8	37597087	79,6
Ishlab chiqarish tarsi-dagi ish xaqi xarajati	1199230	5,5	1311874	5,3	1326800	4,0	4296583	10,1	6263602	13,3
Ishlab chiqarish ijtimoiy sug'urta ajratmalari	287815	1,3	327968	1,3	331700	1,0	1074146	2,5	1565901	3,3
Asosiy vositalar va ishlab chiqarish nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	676050	3,1	700745	2,9	1187047	3,6	1923892	4,5	1804258	3,8
Ishlab chiqarish tarzidagi boshqa xarajatlar				0,0				0,0		0,0

²⁰ õUrganch yogõ-moyõOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi


2.2.3-jadvalda ishlab chiqarilgan mahsulatlarning ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi xarajatlarni tannarxga nisbatan ulishini koʻrib chiqamiz. 2.2.2-diagramma moddiy xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida qanday ulishga ega ekanini koʻrsatadi. 2013 yilda mahsulot tannarxi tarkibidagi moddiy xarajatlar 2009 yilga nisbatan 10,5% ga kamaygan.



2.2.2-diagramma.²¹

²¹ 2013 yil "Urganch yog'-moy" OAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.


2.2.3-diagramma ish haqi xarajatlari ulushini tavsiflaydi. Unga ko'ra ish haqi xarajatlari mahsulot tannarxi nisbatan 2009-2013 yillarda mos ravishda 5,5%, 5,3%, 4,0%, 10,1%, 13,3% ni tashkil etgan, ish haqi xarajatlari 2010-2011 yillarda mos holda boshqa xarajatlar oshishi hisobiga kam ulushga ega bo'lgan. 2.2.2-diagrammaga qaraydigan bo'lsak aynan 2010-2011 yillarda moddiy xarajatlar ulushi ortib borgan. Shuning hisobiga bu holat yuzaga kelgan.



2.2.3-diagramma.²²


Ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi amortizatsiya xarajatlari 2009-2013 yillarda quyidagi ulushlarga ega bo'lgan: 3,1%, 2,9%, 3,6%, 4,5%, 3,8%. 2011-2012 yillarda amortizatsiya xarajatlarning o'sishiga gidrogenizatsiya va sutni qayta ishlash sexlarining ishga tushishi va yangi asbob-uskunalarining o'rnatilishi sabab bo'lgan. Buni 2.2.4-diagrammada ko'rish mumkin.

²² "Urganch yog'-moy" OAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.



2.2.4-diagramma.²³

2.2.5-diagrammada sug'urta ajratmalarida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganini va tannarxdagi ulushini ko'rish mumkin.



²³ "Urganch yog'-moy" OAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

2.2.5-diagramma.²⁴

Ishlab chiqarish mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi xarajatlar tahlili²⁵ (ming so'm) 2.2.4-jadval.					
Nomlanishi	2012	ulush i	2013	ulushi	Ulush dagi o'zga rish
Xom-ashyo materiallari	31 754 808	74,7	33 838 543	71,6	-3,1
Par, gaz, suv	2 122 267	5,0	2 231 811	4,7	-0,3
Eletr energiya	1 316 845	3,1	1 526 733	3,2	0,1
Ish haqi	4 296 583	10,1	6 263 602	13,3	3,1
Ijtimoiy sug'urta	1 074 146	2,5	1 565 901	3,3	0,8
Amortizatsiya	1 923 892	4,5	1 804 258	3,8	-0,7
Jami tannarx	42 488 541	100,0	47 230 848	100,0	
Bir birlik mahsulot uchun ketgan xarajat (so'm)	0,73		0,72		

Ushbu 2.2.4- jadvalda tannarx tarkibiga kiruvchi moddiy xarajatlar tarkibiga kiruvchi xarajatlar, jumladan materialdan tashqari par, gaz, suv va elektr energiya ulushi keltirilgan. Jadvalning umumlashgan holatini yuqoridagi 2.2.3-jadvalda ko'rish mumkin.

²⁴ o'Urganch yog'o-moyöOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

²⁵ o'Urganch yog'o-moyöOAJ moliyaviy hisob hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

2.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xarajatlarini tejash va samaradorligini oshirish yoʻllari

Hech kimga sir emaski, ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori ekani, tayyorlanayotgan mahsulotlarning material va energiyani koʻp talab qilishi va avvalo iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining texnologik jihatdan qoʻlqoʻlligi bugungi kunda raqobatdoshlikni oshirishda jiddiy toʻsib boʻlmogʻda.

Yurtimizdagi 500 dan ortiq real sektor korxonasida ishlatilayotgan 160 mingdan ziyod uskuna boʻyicha oʻtkazilgan texnik audit natijalari shuni koʻrsatmoqdaki, anashu uskunalarining 30 foizdan ortigʻi eskirib ketgan. Jumladan, elektr texnika sanoatida uskunalarining 44 foizi, mashinasozlik tarmogʻida 37 foizi, kimyo sanoatida 21 foizi, qurilish materiallari ishlab chiqarishda 20 foizi, oziq-ovqat sanoatida 19 foizi, yengil sanoatda 8 foizi eskirgan.²⁶

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish asosiy yunalishlaridan biri bu fan texnika taraqqiyotining yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. Fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom-ashyo materiallaridan yoqilgʻi resurslaridan yanada toʻlaroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek yangi unumdorligi yuqori boʻlgan samarador mashina, dastgoxda yangi texnologik jarayonlar yaratish, uni ishlab chiqarish joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. Fan texnika taraqqiyoti ning 20-asr ikkinchi yarmidagi oʻziga xos jixati printsipal yangi texnologik usulga oʻtilishi bilan harakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan moddiy neʼmatlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xarajatlarni pasaytirish asosiy yunalishlardan biri bu ishlab chiqarish va mehnat tashqil etishning takomillashtirishdir. Ushbu yoʻnalish ishlab chiqarishda yuqotishlarni kamaytirish yuli bilan harajatlarni pasaytirish bu esa oʻz navbatida jonli mehnatni iqtisod qilishga yaʼni ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib keladi.

²⁶Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi

Samaradorlik iqtisodiy kategoriya sifatida odamlarni ayrim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mahsulotlar qobiliyatlarini anglatadi. Samaradorlik miqdoriy oʻlchov darajisiga ega boʻladi. Iqtisodiyotda eng avvalo yuqori samaradorlik koʻpincha imkoniyatlari bilan birgalikda istemol qilishdan xosil boʻlgan samaradorlikning yuksalishini izoxlaydi. Barcha samaradorliklar majmuasi eng yukori maksimal samaradorliklardan iborat ekanini izoxlash qiyin emas. Xar bir istemol qilinayotgan yangi tovar oʻzining eng yuqori samaradorlik darajasiga teng samaradorlik darajasini kengaytiradi.

Maksimal samaradorlikni pasaytiruvchi qonunga koʻra navbatdagi har bir istemol qilinayotgan neomatni yuqori samaradorlik darajasi oldingi bosqichga nisbatan past boʻladi.

Demak, bir oʻlchovga toʻgʻri keluvchi qoʻshimcha neomatlar hosil qilish samarasi oldingi bosqichda olingan natijalardan pastroq boʻladi.

Iqtisodiy samaradorlik bir necha iqtisodiy koʻrsatgichlar orqali tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi bir qancha juziy koʻrsatgichlar orqali tavsiflanadi. Samaradorlikning umumiy koʻrsatgichi mehnat unumdorligidir. U umummahsulot miqdorining jonli mehnat sarfiga nisbatan ifodalanadi. Jonli mehnat sarfi kunlarda soatlarda hisoblanadi. Mehnat unumdorligi bilan birga mehnat sigʻimi degan samaradorlik koʻrsatgichi ham qoʻllanadi. Mehnat sigʻimi jonli mehnatni mahsulot miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi. Mahsulotning material sigʻimi degan iqtisodiy koʻrsatgich ham bizning davrimizda katta ahamiyat kasb etmoqda..

Material sigʻimi moddiy ashyolar sarfini mahsulot miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarish fondlarini samaradorligi mahsulotning fond sigʻimi yoki fondlar qaytimi koʻrsatgichlari orqali oʻlchanadi. Koʻrinib turibdiki juziy koʻrsatgichlar samaradorlik umumiy ifodasini aniqlashtirilgan shaklida bu nisbatlarda mahsulotlar miqdori koʻrsatgichlari oʻrnida jami mahsulot yalpi milliy mahsulot, jami ichki mahsulot, sof mahsulot, qoʻshimcha mahsulot, uning pul shakllaridan biri foyda milliy daromad kabi kategoriyalar qoʻllaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida ayniqsa, respublikamizning hozirgi sharoitida samaradorlikni oshirish juda jiddiy masaladir. Gap shundaki, xozirgi

davrdagi ko'pgina resurslar chegaralangan ularning aksariyat qismi xorijdan keltiriladi, zamonaviy texnologiya yetishmaydi, qadrlar malakasi yuqori emas. Shuning uchun resurslardan tejimli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish milliy va xorijiy sarmoyalarni eng zarur soxalarga joylashtirish yuqori malakali qadrlar tayyorlash kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarlicha e'tibor berish talab qilinadi.

Lekin oxirgi yillarda mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturi asosida qilingan ishlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 18 foizga tushirishga erishildi. Bu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kechayotgan bir paytda juda katta natijadir. Bunday ishlar albatta korxonalar barqarorligini yanada oshiradi. Chunki ishlab chiqarish tannarxi pasaytirilsa, mahsulot sotish bahosi ham nisbatan pasaytirilishi mumkin, bu esa bunday sharoitda mamlakatimizdagi iste'molchilari uchun ayni muddao bo'ladi.

Olmaliq kon-metalurgiya kombinati, "O'zmetakom" aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmalari, «O'zeltexsanoat» uyushmasi, «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi singari va boshqa korxonalar va tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 20-25 foizga kamaydi. Bu korxonalar ishlab chiqaradigan tayyor mahsulotlari boshqa ishlab chiqarish korxonalarini uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Masalan Olmaliq kon-metalurgiya kombinati ishlab chiqarayotgan mis katodi va boshqa mahsulotlari Uzkabel korxonasida turli elektr uzatuvchi simlar ishlab chiqarishda xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Demak yuqorida bir korxonaning mahsulot ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, ikkinchi korxonaning ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga olib keladi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan yo'nalishlardan biri - mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlash bo'ldi. Bu esa bunday korxonalar yanada barqaror ishlashida muhim ahamiyat kasb etdi. Buning uchun korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish uchun ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida qat'iy choralar ko'rildi.

Energiya manbalari va kommunal xizmatlar narxlarining asossiz oshishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarda texnologik jarayonlarni optimallashtirish hisobidan

mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport narxlarini shakllantirishga doir yangi mexanizmlarni joriy etish, bank kafolatlari muddatlarini uzaytirish, qoʻshimcha qiymat soligʻini qaytarish muddatini qisqartirish va boshqa ragʻobatlantirish choralari shular jumlasidandir.

Demak mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturidan kelib chiqib, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi oʻrganilib, mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi xarajatlarni asossiz oshirilishiga yoʻl qoʻyilmagan. Bu esa korxonalarining moliyaviy holati yanada yaxshilanishiga turtki boʻlgan.

Mamlakatimizda moliyaviy inqiroz sharoitida korxonalarini turli qoʻllab quvvatlash maqsadida, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda imtiyozli kreditlar berilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Inqirozga qarshi dasturdagi amalga oshiriladigan yoʻnalishlardan biri ham shundan iborat boʻldi. Yaʼni mahsulot eksport qiladigan korxonalariga mamlakatimiz banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berildi. Bu esa ularning yanada barqaror ishlab chiqarishga yordam berdi. Birgina oʻtgan yilning oʻzida bu korxonalariga aylanma mablagʻlarini koʻpaytirish uchun umumiy miqdori 233 milliard soʻmdan iborat imtiyozli kreditlar berildi. Maʼlumki eksport qiluvchi korxonalar mahsulot eksport qilganda, har doim ham ishlab chiqarish bir xil boravermaydi. Chunki bunday sharoitda sotilgan mahsulot puli oʻz vaqtida kelib tushmasligi yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga talab oshishi yoki boʻlmasa koʻproq mahsulot ishlab chiqarish uchun texnika-texnologiyalarning etishmasligi natijasida korxonalarda vaqtinchalik mahsulot ishlab chiqarish toʻxtab qolishi yoki belgilangan miqdorni ishlab chiqarishga ulgurmasligi mumkin. Bunda banklarning imtiyozli kredilar berilishi korxonalar uchun juda katta yordam boʻladi. Bunda birinchidan ishlab chiqarish tezlashadi, bu degani birinchidan mehnat unumdorligi oshadi, ikkinchidan asosiy vositalar rentabelligi oshadi. Bu ikkita koʻrsatkichlar ham bevosita korxonalar mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi oʻzgarmas xarajatlarga bogʻliqdir. Buning natijasida esa korxonada mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yanada pasayadi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida ularning barqaror ishlashini taʼminlashga, 2009 yilda

eksport hajmini 2,4 foiz oshirishga erishdik. Bu esa mamlakatimizda korxonalar iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy taʼsirini koʻrsatadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga tanitadi. Bu esa oʻz-oʻzidan keyinchalik xorijiy davlatlarning mamlakatimiz bilan turli yoʻnalishlarda oʻzaro manfaatli ishlar qilishiga zamin yaratadi.

Bunga misol qilib oʻ Urganch yogʻ-moy oʻ OAJ ni olishimiz mumkin. Ustav kapitali tarkibidagi 26.9 foizlik ulushga ega boʻlgan Shvetsariyaning oʻFLOIL Ltd kompaniyasi bilan birga sutni qayta ishlash sexi va gidrogenizatsiya sexlari ishga tushirildi. Buning asosi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda «2011-2015 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor vazifalari toʻgʻrisida»gi 1442-sonli qarorining 2- bandi ijrosini taʼminlash hisoblanadi. 2011 yilda quyultirilgan sut ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyilib, 2012 yilning 9 oyida 8,53 tonna quyultirilgan sut va 293 kg qaymoq mahsuloti ishlab chiqarildi.

Shuningdek, oʻ Urganch yogʻ-moy oʻ OAJda eskirgan asbob-uskunalar oʻrniga, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish uchun yangi asbob-uskunalar keltirilib, oʻrnatilib, 2012 yilda ishga tushirildi.

Bundan tashqari, korxonadagi qisman ishlab chiqarish sexlari, maishiy binolarda taʼmirlash ishlari bajarildi. Texnologik jarayonlarda ishlatiladigan issiqlik energiyasini iqtisod qilish maqsadida maʼnaviy, fizik jihatdan eskirgan kondensat qaytargichlar oʻrniga zamonaviy 185 dona «Armstrong» kondensat qaytargichlar oʻrnatildi.

-moy-juvoz sexiga - 130 dona;

-ekstraksiya sexiga -34 dona;

-yogʻoqlash sexiga - 21 dona;

Ekstraksiya sexida 2 ta F q150 m2 kondensator kapital taʼmirlanib, 3 dona yangi SK- 8 benzonasosi, soapstokni qayta ishlash sexida 1 dona germetik nasos (Xindiston) oʻrnatildi. Hammasi boʻlib modernizatsiya va texnik qayta jixozlash tadbirlarini bajarishga 214,6 mln. soʻm xarajat qilindi.

Qandolatchilik mahsulotlaridan «Korovka» konfeti ishlab chiqarish uchun Xitoy

Xalq Respublikasidan 87,5 ming AQSh dollariga shartnoma imzolaniib, bugungi kunda olib kelingan uskunalar oʻrnatilib, ishga tushirildi.

Olib borilayotgan ishlar oʻz samarasini berib, jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 249 foizga yaʼni 2.5 baravar oʻshgan.

Iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur oʻzgarishlar mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy oʻzgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi.²⁷

Shu jihatdan jamiyat eksport salohiyati 2012 yilda 719,76 tonna, 2013 yilda 1000 tonnadan ziyod xoʻjalik sovuni eksport qilindi²⁸

2013 yilda jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish parametrlarini bajarilishini taminlash uchun ishlab chiqarishga munosabatni tubdan oʻzgartirish, mexnat intizomini mustahkamlash, bozorni chuqur oʻrganib, arzon baxolarda xom - ashyo va yordamchi materiallarni sotib olishni tashkil qilish, ishlab chiqarishga xalqaro standart ISO- 9001-2009 sifat menejment tizimini joriy qilish, muxandis - texnik xodimlar, ishchilarni tayyorlash va oʻqitish ishlarini olib borishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan edi.

2013 yilda korxonada iqtisodiy tejamkorlikka erishish, kam xarajat bilan yuqori sifatli koʻp maxsulot ishlab chiqarish chora - tadbirlarini koʻrish boʻyicha dastur ishlab chiqildi.

2013 yilda korxonada xarajatlarni kamaytirish, istemolchilarning talab va extiyojlarini toʻla qondirish va koʻp miqdorda yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish, shu bilan birga yuqori darajada foyda olish koʻzda tutilgan.

Buning uchun jamiyatda quyidagi ishlar amalga oshirilishi shart:

- tabiiy xom-ashyo yoʻqolishini mumkin qadar kamaytirish;
- ishlab chikarish quvvatlaridan oqilona va samarali foydalanish evaziga issiqlik energiyasi, suv, elektr energiyasi va butlovchi materiallarni tejash;

²⁷Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi.Xalq soʻzi.2014 y,18-yanvar(13)

²⁸ Jamiyat biznes reja tahlili maʼlumotlaridan olindi.

- Qayta ishlashda olinayotgan rafinatsiyalanmagan va rafinatsiyalangan oʻsimlik yogʻlarining chiqish foizlarini oshirish;

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 7 mart 2012 yildagi PF 64 - sonli farmonini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan tadbirlarni amalga oshirish;

Yuqorida belgilangan tadbirlarni 2013 yilda amalga oshirish natijasida korxonada 2077 mln.soʻmlik mablagʻni tejash maqsad qilib qoʻyildi.

«Urganch yogʻ-moy» OAJda ishlab chiqariladigan maxsulotlarning tannarxini kamaytirish va sifatini yaxshilash borasida 2013 yilga tuzilgan tadbirlar.²⁹

Tadbirlarnomi	Kutilayotgan natija	Bajarish uchun masʼullar	Bajarish muddati
<u>Tejashga erishish</u> -elektr energiyasi -issiqlik energiyasi -suv -gaz	297 mln. soʻm	K.Sobirov K.Sadullaev O.Shermetov Z.Roʻzmatov J.Radjabov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	2013 yil davomida
<u>Qayta ishlash jara-yonida xom-ashyo va materiallar meʼyorlari sarfini optimallashtirish hisobiga, xom-ashyo va materiallarni sotib olishni optimallashtirish.</u> Yuqori oliy navli oʻsimlik yogʻi ishlab chiqarishni koʻpaytirish.	859 mln. soʻm	K.Sobirov K.Sadullaev O.Shermetov Z.Roʻzmatov J.Radjabov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	2013 yil davomida
Boshqaruv xodimlari xarajatlarini qisqartirish xisobiga (AUP)	10 mln. soʻm	K.Sobirov T.Turaev M.Xudoyberganov M.Matniyazov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	2013 yil davomida
Ishlab chiqarishning bilvosita xarajatlarini tejash	233 mln. soʻm	K.Sobirov K.Sadullaev O.Shermetov	2013 yil davomida

²⁹«Urganch yogʻ-moy» OAJda ishlab chiqariladigan maxsulotlar tannarxini kamaytirish borasida 2013-yilda belgilangan chora-tadbirlar dasturi.

		Z.Roʻzmatov J.Radjabov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	
Texnologik va boshqa yoʻqotishlarni kamaytirish.	399 mln. soʻm	K.Sobirov K.Sadullaev O.Shermetov Z.Roʻzmatov J.Radjabov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	2013 yil davomida
Nakladnoy xarajatlarini kamayishi (Davr xarajatlari)	121 mln. soʻm	K.Sobirov K.Sadullaev O.Shermetov Z.Roʻzmatov T.Turaev J.Radjabov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	2013 yil davomida
Mexnat unumdorligini oshishi va asosiy vositalarni koʻpayishi xisobiga xarajatlar ulishini kamaytirish va boshqa xarajatlarni kamayishi.	158 mln. soʻm	K.Sobirov K.Sadullaev O.Shermetov Z.Roʻzmatov T.Turaev M.Matniyazov J.Radjabov Barcha sex va boʻlim boshliqlari	2013 yil davomida
Jami:	2077 mln. soʻm		

oʻUrganch yogʻ-moy oʻOAJda ishlab chiqarilgan ushbu dastur boʻyicha jami 2077 mln soʻm tejalishi koʻzda tutilgan. Ushbu dasturni amalga oshirishda quyidagi ishlarni bajarilishi koʻzlangan:

-Energiyani iqtisod qiladigan texnologiyalarni jalb qilish, elektrodivigatellarni xizmat muddatini uzaytirish, yuqori yuklanishni va sakrashdan saqlash;

-korxonaga zamonaviy energiyani iqtisod qiladigan yorugʻlik lampalarini oʻrnatish;

-energiya effektiv bugʻ qozonlarini oʻrnatish hisobiga va boshqa qurilish chora-tadbirlari hisobiga bugʻ sarfini 20% ga kamaytirish;

-õArmstrongö kondensat qaytargichlar hisobiga issiqlik energiyasi sarfini kamaytirish;

-suv taöminoti boöyicha quvurlarni taömirlash, zamonaviy oölchash asboblarini oörnatish va boshqa tadbirlar hisobiga suv sarfini tejash;

-gaz taöminoti boöyicha quvurlarni taömirlash, zamonaviy oölchash asboblari hisobiga gaz sarfini tejash;

-sotib olinadigan, xom-ashyo, materiallar va butlovchi materiallarni narxlarini yangi zamonaviy usullar asosida sotib olishni yoölgä qoöyish hisobiga narxlarni pasaytirish. Import orqali olinib turgan tovarlarni mahalliy bozorlardan oöz valyutamizga sotib olishni yoölgä qoöyish.

-korxonaga keltirilayotgan barcha moddiy boyliklarni tashish xarajatlarini iloji boricha korxonaning transportlarida amalga oshirish yoödi bilan kamaytirish. Chetdan xizmat koörsatadigan transportlarni tender asosida tanlab olish hisobiga xarajatlarni kamaytirish.

-moy-juvoz, ekstraksiya va rafinatsiya sexlarini navbatma-navbat modernizatsiya qilish va qayta tiklash hisobiga kislota sonini kamaytirish natijasida yordamchi materiallarni tejash (ekstrabenzin, filtrbelting, limonkislota, aktivlashgan koömir va boshqalar);

-yogö qadoqlash va shrot qadoqlashda materiallar sarfidan unimli foydalanish hisobiga;

-soapstokni qayta ishlash sexi va xoöjalik sovuni ishlab chiqarish sexlarida gofrayashik, sqotch, qaustik soda va kalsinatsiyalangan soda sarfini kamaytirish hisobiga;

-gidrogenizatsiya sexida materiallar sarfini kamaytirish hisobiga;

-xom-ashyoni qayta ishlashda maxsulotlar chiqishini oshirish va har xil yoöqotishlarni kamaytirish hisobiga;

-xom-ashyolarni texnologik talablarga javob beradigan omborlarda saqlash va sotishda meöyorlarga nisbatan yoöqotishni kamaytirish;

-zavod ichki transport xarajatlarini qisqartirish hisobidan. Benzin yoqilgöisi bilan yonuvchi avtomashinalarni gaz yoqilgöisiga oökazish;

-texnologik regamentga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni vaqtincha toʻxtatib turgan paytlarda ishchi xodimlarni boshqa ishlarga jalb qilgan holda xarajatlarni tejash;

-ishlab chiqarish quvvatlaridan koʻproq foydalanish maqsadida chetdan kungaboqar doni olib kelish va tegirmon xaqi uchun qayta ishlab berishni amalga oshirish hisobiga majburiy toʻxtashlardan yuzaga keladigan xarajatlarni kamaytirish;

-asosiy vositalar ish holatini saqlash sarf xarajatlarini kamaytirish, joriy va kapital taʼmirlashni, texnik tekshirishlarni samarali oʻtkazish hisobidan ehtiyot qismlarni jamiyatning yordamchi ishlab chiqarish sexlarida tayyorlash hisobiga xarajatlarni kamaytirish;

-doimiy xarajatlarni optimallashtirish va xizmat safari xarajatlarini qisqartirish, ishchi transport, telefon xizmati xarajatlarini kamaytirish, konselyariya va boshqa sarflarni iqtisod qilish;

-elektroenergiya, issiq va sovuq suvlarni iqtisod qilish orqali kommunal xizmati xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish binolarini qizdirish sistemasini optimallashtirish;

-davo muddati oʻtgan debitor qarzlarni undirishda zarar koʻrilishiga yoʻl qoʻymaslik uchun bor imkoniyatdan foydalanish;

-shartnoma shartlarini buzgan aybdarlar uchun sanksiyalar qoʻllash;

-koʻzda tutilmagan xarajatlarni tejash;

-omborxonadagi mavjud tovarlar, xom-ashyo qoldiqlarini sotish yoki eskirgan tovarlarni qisqartirish hisobiga;

-kasanachilar xizmatidan foydalanish hisobiga;

-korxonada zarar bilan ishlyotgan va mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanilmay turgan ishlab chiqarish sexlarini uskunalari sotish.

oʻUrganch yogʻ-moyö OAJ yuqoridagi chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida mahsulotlari tannarxini kamaytirishga harakat qilib kelmoqda.

Tashkilot asbob-uskunalarini yangilab, yangi sexlarni ishga tushirib, tannarxni pasaytirish dasturini qoʻllab, imkoniyatlaridan samarali foydalanib 2013-yilda 65 mlrd 406 mln soʻmlik yalpi tovar mahsuloti, 54 mlrd 801 mln soʻmlik xalq isteʼmoli

mollari ishlab chiqardi va yalpi tovar mahsuloti ishlab chiqarish rejasini 110,86% ga, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish rejasini 118,5% ga bajarildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 104,2% ga, solishtirma narxda tovar mahsuloti ishlab chiqarish 102,06% ga o'sdi.

Xulosa va takliflar

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri sezilarli bo'lsada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu asosan mamlakatimizda eksport qiluvchi korxonalarda mahsulot sotish bahosi ancha pastga tushdi. Bu esa mamlakatimiz korxonalari iqtisodiy-moliyaviy barqarorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Lekin mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olib borilgan ishlar, inqirozga qarshi choralar dasturining ishlab chiqilishi bunday salbiy natijalarning o'z vaqtida oldini olishga erishildi. Hozirgi kunda butun jahon iqtisodchi olimlari, etakchi mutaxassislar tomonidan mamlakatimizda inqirozga qarshi olib borilayotgan ishlarga ijobiy baholar berilib, O'zbek modeli qanchalik to'g'ri ekanligini tan olmoqdalar, hamda mamlakatimiz tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamodalar. Mamlakatimiz jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan talofatsiz chiqqan sanoqli davlatlardan biri bo'lishga erishdi.

Korxonalarda har doim ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini takomillash uni pasaytirishga qaratilgan ishlar olib borilgan. Chunki bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoiti ekan, korxonalar nafaqat ichki bozorlarda balki tashqi bozorlarda, o'z raqobatbardoshligini oshirishga harakat qiladi. Lekin bu ishlar, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishning ahamiyati jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tobora oshdi. Buning uchun mamlakatimizda korxonalarni, ayniqsa xorijga mahsulot eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash maqsadida imtiyozlar, rag'batlantirishlar berildi. Inqirozga uchrab bankrot bo'lgan korxonalarni qayta ishga tushirishga davlat tomonidan turli choralar ko'riladi.

Mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturida eng ahamiyatli ishlardan biri, mamlakatimiz banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida,

davlatimiz tomonidan ularning ustavini keskin oshirildi. Bu esa banklarning korxonalar bilan oʻzaro moliyaviy munosabatlarini juda yaxshiladi. Korxonalarning banklardagi pul mablagʻlarining tez va oʻz vaqtida aylanishi taʼminladi. Bu esa korxonalarning ishlab chiqarishini oʻz vaqtida boʻlishini taʼminlaydi. Bundan tashqari banklarning zaxirasi oshirilishi, korxonalariga turli imtiyozli kreditlar bera olish imkoniyatini oshirdi. Natijada mamlakatimizda juda koʻp korxonalar, ayniqsa xorijga mahsulot eksport qiluvchi korxonalar banklarda imtiyozli kreditlar olishga muvaffaq boʻldi. Buning natijasida esa korxonalar ishlab chiqarish hajmi hamda sifati oshirildi, eksportyor korxonalarda mahsulot sotilishida pul mablagʻlari oʻz vaqtida kelib tushmasligi natijasida vaqtinchalik ishlab chiqarishning uzilishi oldi olindi, mahsulot unumdorligi oshirildi, korxonalar oʻz aktivlaridan samarali foydalanib ularning rentabelligi darajasi yanada oshirildi. Bu esa oʻz navbatida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tarkibiga kiruvchi doimiy yaʼni oʻzgarmas xarajatlar hajmi kamaytirilishi natijasida umumiy mahsulot tannarxi kamaytirilishiga erishildi.

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda korxonalar moliyaviy holatining yuqoriligi juda ahamiyatga ega. Korxonalarning mahsulot ishlab chiqarishida kerakli boʻlgan zamonaviy texnologiyaning sotib olinishi mahsulot sifatini hamda hajmini oshirib, juda koʻp ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Bulardan eng asosiysi mehnat unumdorligi. Chunki bugungi kunda mahsulot ishlab chiqarishda eng katta xarajatlardan biri mehnatga haq toʻlash xarajatlardir. Ayrim korxonalarda, masalan kompyuter dasturlari ishlab chiqaruvchi va uni tuzatuvchi korxonalarda eng katta xarajat mehnatga haq toʻlash xarajatlari hisoblanadi. Bunday sharoitda korxonada ishchi xodimlardan samarali foydalanib, ular ishlab chiqarishini koʻpaytirish hamda mahsulot sifatini oshirish juda katta ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida korxonalar mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yanada tushadi.

Korxonada uzoq muddatli aktivlariga amortizatsiya hisoblash usuli ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining tez oʻzgaruvchan bir sharoitida amortizatsiya hisoblashning tezlashtirilgan usulining oʻziga xos ijobiy tomonlari

mavjud. Mahsulot ishlab chiqarishda tezashtirilgan amortizatsiya usulini qoʻllash, bir tomondan vaqtinchalik mahsulot ishlab chiqarish tannarxini oshirsada, lekin amortizatsiya hisobi natijasida korxonaga koʻp pul mablagʻlari kelib tushadi. Bu esa yuqorida aytib oʻtganimizdek koʻp ijobiy natijalarga olib boradi. Boshqa tomondan esa boshlangʻich yillarda tezashtirilgan usulda koʻp miqdorda amortizatsiya hisoblash natijasida mahsulot tannarxi oshishi, keyingi yillarda kam amortizatsiya hisoblab va mahsulot tannarxi kamayishi kuzatiladi.

Mehnat unumdorligi oshirilishi natijasida mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi ijtimoiy sugʻurta fondiga ajratmadan ham samarali foydalangan boʻladi. Bu ajratma ham korxonaga uchun asosiy xarajatlardan biri boʻlib, mehnatga haq toʻlash xarajatlariga toʻgʻri proporsional hisoblanadi. Agarda korxonaga mehnatga haq toʻlash xarajatlarining samaradorligiga erishilsa, oʻz navbatida mazkur xarajatning ham samaradorligiga erishgan boʻladi.

Demak korxonalar har qanday vaziyatda, jumladan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida mahsulot sifati hamda hajmini oshirishi, turli davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan oqilona foydalanishi, ishchi va xodimlaridan yanada samarali foydalanishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishi mumkin ekan. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini yanada oshiradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida bitiruv malakaviy ishimizning quyidagi takliflarini keltirdik:

1. Korxonalarda xom ashyo va materiallardan samarali foydalanish, yaʼni ulardan ortiqcha isrofgarchilikka yoʻl qoʻyilmasligi lozim. Aks holatda korxonaning xom ashyo va materiallarga boʻlgan xarajatlarini oshirib mahsulot ishlab chiqarish tannarxini oshiradi. Agarda ulardan oqilona foydalanishni yoʻlga qoʻyilsa mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga erishgan boʻladi.

2. Korxonaga ishchi xodimlaridan samarali foydalanishni yoʻlga qoʻyish orqali mehnat unumdorligini oshirish lozim. Ulardan mahsulot ishlab chiqarishda sifat va miqdorining yaxshilashi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim. Mehnat unumdorligi qancha oshsa mahsulot tannarxi ham shuncha kamayadi.

3. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni yoʻlga qoʻyish lozim. Ishlab chiqarishda kam samara berayotgan asosiy vositalarni sotishi yoki boshqa xoʻjalik yurituvchi subʼektlarga ijaraga berish lozim. Natijada amortizatsiya kam hisoblanib, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini yanada kamaytiradi.

4. Uzluksiz ravishda korxonada barcha hisob kitoblarni olib borish hamda tahlil qilish lozim. Amortizatsiya hisoblash usulining eng maqbulini tanlash kerak. Eng maqbul deganda shu korxonaning shu davrdagi sharoitidan kelib chiqadi. Tezlashtirilgan amortizatsiya usulini tanlashi natijasida korxonaga koʻproq pul mablagʻlari keladi. Buning natijasida korxonada turli operatsiyalarini moliyalash imkoniga ega boʻladi yoki ishlab chiqarish uchun zarur boʻlgan zamonaviy texnikani tezroq olishga imkoni boʻladi. Bu esa keyinchalik ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga imkon yaratadi.

5. Banklar tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish lozim. Bunda korxonada ishlab chiqarishda turli uzilishlarni oldini olib oʻz vaqtida ishlab chiqarishni amalga oshirib, realizatsiya qilishi mumkin boʻladi, imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish natijasida mehnat unumdorligi ham oshadi. Bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga zamin yaratadi.

6. Jahon moliyaviy - iqtisodiy sharoitida mahsulot realizatsiya qilishda, eng maqbul toʻlov usuli oldindan toʻlashni taʼminlash lozim. Bu esa korxonada debitorlik qarzlarini oshib ketish oldini oladi va ishlab chiqarish bir maromda borishini taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2008.
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2009 yilgi Davlat byudjetining parametrlari va asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning prognozi toʻgʻrisida" Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1024-sonli Qarori, 29 dekabr 2008 yil.
3. Oʻzbekiston Respublikasining 2010 yilgi Davlat byudjetining parametrlari va asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning prognozi toʻgʻrisida" Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1245-sonli Qarori, 22 dekabr 2009 yil.
4. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish -davr talabi". Prezident I.A.Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi GʻGʻ Xalq soʻzi, 2009 yil 14 fevral.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. -T.: Oʻzbekiston, 2009. - 56 b.
6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. ô T.: «Oʻzbekiston», 2010. -80 b
7. Karimov I.A. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi. ôXalq soʻziö, 22 yanvar 2012 y
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Bosh maqsadimiz ó keng koʻlamli islohotlar va modernizatsiya yoʻlini qatʼiyat bilan davom ettirishö mavzusidagi maʼruzasi. ó 19.01.2013.
9. Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimida soʻzlagan „Inson

manfaati, huquq va erkinliklarini taʼminlash, hayotimizning yanada erkin va obod boʻlishiga erishish oʻ bizning bosh maqsadimiz oʻ mavzusidagi maʼruzasini oʻrganish boʻyicha oʻquv qoʻllanma. oʻ T.: „Oʻqituvchi oʻ NMIU, 2013

10. Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimida soʻzlagan oʻ Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish- yorugʻ kelajagimizning asosiy omilidir oʻ nomli maʼruzasi. Xalq soʻzi 2013 yil 7 dekabr

11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi Xalq soʻzi 2014 yil 18 yanvar 13-son.

12. Vahobov A., Jumaev N., Xoshimov E. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga taʼsirini yumshatish yoʻllari" - T.: "Akademnashr" - 2009 y. 123- bet

13. . . " " - " " - 2003, 203

14. . M. . « » , - Mo a - « - » , 2007 . 36 .

15. Shoalimov A.X. Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. oʻ T.: TDIU, 2010. -265 b.

16. Akramov E.A. Korxonalar moliyaviy holati tahlili. Oʻquv qoʻllanma, T.2007

17. T. . oʻ xo . oʻ M.: -M., 2010. -293 .

18. . . eo . oʻ M.: . oʻ M.: , 2010. -412 .

19. .E. . M.: , 2009. -512 .

20. . . . -M.: , 2010.-463 .

21. Ka a o a . . . oʻ M.: , 2008. -264 .

22. M. ., Me M. . Teo o a . . - M.: , 2007. -362 .
23. . . Teo . - M.: , 2006. -287 .
24. A. . . - .: , 2007. - 603 .
25. Vaxobov A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. -T.:Shark, 2005.-584 b.
26. Ergeshev E..E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil.Darslik. óT.: Konsauditinform, 2005.-374 b.
27. Abdullaev A., Abduvahobov O., Qayumov I. Audit asoslari.- T.: O`AJBNT, 2003, - 196 b. 100 ekz.
28. Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Masalalar to`plami. óT.: TDIU, 2010. -30 b.
29. Ka . ., Ka A. . . ó 5-e . ó M.: O - , 2010. -326 .
30. Pardaev M.Q., Shoalimov A.X. Boshqaruv tahlili. O`quv qo`llanma. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. -296 b.
31. A. ó M.: , 2005. -382 .
32. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O`quv qo`llanma. óT.: Mehnat, 2004. -490 b.

Internet saytlari

33. www.gov.uz.
34. www.uza.uz
35. www.jurnal-audit.ru.
36. www.norma.uz
37. www.pravo.uz
38. www.TDIU.uz

39. Soliq to'lovchining jurnali. 2008-2013.
40. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. 2012-2013.
41. Soliqlar va bojxona xabarlari gazetasi. 2013.